

## YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 259 (1320), 2024-yil 21-dekabr, shanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz\_official



yuz.uz\_news



yuz



## MAMLAKATIMIZ IQTISODIYOTI TAYANCHI BO‘LGAN TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH – MUHIM STRATEGIK VAZIFA

Prezident Shavkat Mirziyoyev 20-dekabr kuni mamlakatimizdagi faol tadbirkorlar bilan uchrashdi. Videoselektor shaklida o‘tgan muloqotda sohani qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha yil yakunlari va 2025-yilga mo‘ljallangan rejalar muhokama qilindi.



Uchrashuv avvalida davlatimiz rahbari nutq so‘zlab, bu boradagi asosiy maqsad va natijalarni ko‘rsatib o‘tdi.

— Tadbirkorlikni rivojlantirish — biz uchun strategik vazifa. Bizning tayanchimiz ham, suyanchimiz ham, eng katta kuchimiz

ham shu sohada mujassam. Shu bois, tadbirkorlarni qo‘llab-quvvatlash markazdan tortib eng quyi bo‘g‘ingacha — barcha rahbarlarning kundalik ishi bo‘lishi shart. Ayniqsa, joylarda hokimlar har bir tadbirkor bilan ko‘proq muloqot qilib, korxonalariga

borib, ularning dardi bilan yashashi kerak. Biz katta iqtidor egalari bo‘lgan biznes vakillarini asrab-avaylashimiz zarur. Ular biz uchun juda qadrlil insonlar, — dedi Shavkat Mirziyoyev.

Ushbu jihatdan kelib chiqib, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti

huzurida Tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha jamoatchilik kengashi tuzilgan. Bu kengash davlat va tadbirkorlar o‘rtasida ko‘priki bo‘lib, aniq takliflarni bildirib kelmoqda. Joriy yilning o‘zida tadbirkorlar faoliyati uchun g‘oyat muhim bo‘lgan

5 ta qonun, 101 ta farmon va qarorlar qabul qilindi.

So‘nggi yillarda iqtisodiyotimizda pul ko‘paydi. Bu investitsiya loyihalarini barqaror moliyalashtirishga asos bo‘lmoqda. Jumladan, korxonalarining banklardagi

mablag‘lari 20 trillion so‘mga oshib, 107 trillion so‘mga, aholi omonatlari 25 trillion so‘mga ko‘payib, 105 trillion so‘mga yetgan.

Davomi 2-beta

## O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOYEVNING TADBIRKORLAR BILAN UCHRASHUVDAGI NUTQI

Assalomu alaykum, qadrlil vatandoshlar!

Hurmatli tadbirkorlar!

Bugun — Yangi yil ostonasida eng faol tadbirkorlarimiz bilan uchrashib, yil davomida amalga oshirgan ishlarimizni sarhisob qilsak, kelgusi yil uchun yangi marralarni belgilab olsak, o‘ylaymanki, har tomonlama foydali bo‘ladi.

Keng ko‘lamli islohotlarimizning ilk kunlaridan boshlab, men bir fikrni doim ta’kidlab kelaman: tadbirkorlikni rivojlantirish — biz uchun strategik vazifa. Bizning tayanchimiz ham, suyanchimiz ham, eng katta kuchimiz ham shu sohada mujassam.

Shu bois, tadbirkorlarni qo‘llab-quvvatlash markazidan tortib eng quyi bo‘g‘ingacha — barcha rahbarlarning kundalik ishi bo‘lishi shart. Ayniqsa, joylarda hokimlar har bir tadbirkor bilan ko‘proq muloqot qilib, korxonalariga borib, ularning dardi bilan yashashi kerak.

Biz katta iqtidor egalari bo‘lgan biznes vakillarini asrab-avaylashimiz zarur. Ular biz uchun juda qadrlil insonlar.

Shu o‘rinda Tadbirkorlarning jamoatchilik kengashi a‘zolari davlat va tadbirkorlar o‘rtasida ko‘priki bo‘lib, aniq takliflarni o‘rtaga qo‘yib kelayotganini alohida ta’kidlash lozim.

Bu yilning o‘zida tadbirkorlar faoliyati uchun g‘oyat muhim ahamiyatga ega bo‘lgan 5 ta qonun, 101 ta farmon va qarorlar qabul qilindi.

Fursatdan foydalanib, Kengash a‘zolariga, ular orqali butun ishbiarmonlar hamjamiyatiga ana shunday faollik uchun chuqur minnatdorlik izhor etaman.

Aziz do‘stlar!

So‘nggi yillarda iqtisodiyotimizda pul ko‘paydi, investitsiya loyihalarini barqaror moliyalashtirish mustahkam asosi yaratildi, desak, ayni haqiqat bo‘ladi. Jumladan, korxonalarining banklardagi mablag‘lari 20

trillion so‘mga oshib, jami 107 trillion so‘mga, aholi omonatlari ham 25 trillion so‘mga ko‘payib, 105 trillion so‘mga yetdi.

Bu — banklarimiz barqaror rivojlanayotgani, ularga aholi va tadbirkorlarimizning ishonchi ortib borayotganidan dalolat beradi.

Yil yakuni bilan ajratilgan jami kreditlar 275 trillion so‘mni tashkil qiladi. 2025-yilda bu ko‘rsatkich 300 trillion so‘mdan oshishi hisob-kitob qilingan. Ayniqsa, kichik biznesga beriladigan kreditlar ulushi hozirgi 28 foizdan 40 foizga oshirilib, 120 trillion so‘mga yetkaziladi.

Tadbirkorlarimiz ehtiyojidan kelib chiqib, banklarimiz 2025-yilda chetdan davlat kafolatsiz 6 milliard dollar olib kelish bo‘yicha o‘ziga vazifa oldi. Faktoringga keng yo‘l ochib berganimiz natijasida shu yilning o‘zida 100 million dollarlik shunday xizmatlar ko‘rsatildi.

Biznes uchun yo‘l, suv, elektr, gaz, temir yo‘l kabi infratuzilma obyektlarini yaxshilashga bu

yil 35 trillion so‘m yo‘naltirildi. Kelgusi yilda yana 43 trillion so‘m yo‘naltirish rejalashtirilgan.

Korxonalarimiz barqaror energiya bilan ta’minlash uchun elektr ishlab chiqarish 82 milliard kilovatt-soatga yetdi. Bu yil ishga tushirilgan 6,3 milliard dollarlik 17 ta yirik “yashil” va yangi texnologiyaga asoslangan energiya quvvatlarini hisobiga kelgusi yilda qariyb 90 milliard kilovatt-soat elektr energiyasi ishlab chiqariladi.

Bu ishlar davom ettirilib, 2025-yilda yana 6,4 milliard dollarlik 25 ta loyiha doirasida 4,8 gigavatt yangi quvvatlar barpo etiladi.

Hozirgi kunda yurtimizda mustaqil energiya ishlab chiqaruvchilar soni 24 taga yetdi. Endi energietika sohasida ham raqobatga asoslangan bozorga o‘tish vaqti keladi.

Ilk bor 2025-yilda elektr energiyasining onlayn ulgurji bozori ishga tushadi. Tajriba sifatida Samarqand, Jizzax va Sirdaryo viloyatlaridagi elektr tarmoqlari xususiy

sektorga beriladi. Natijaga qarab, bu amaliyotni qolgan viloyatlarda ham joriy etamiz.

Turizm sohasida ham katta ishlar qilindi. Tadbirkorlarning 6,5 trillion so‘m sarmoyasi hisobiga jami 24 ming o‘rinli mehmonxonalar ishga tushirildi.

Kelgusi yilda mehmon o‘rinlari soni yana 30 mingtaga oshadi. Tadbirkorlar buning uchun 10 trillion so‘m investitsiya kiritishga tayyor. Bu yil ishga tushirilgan 17 ta yirik savdo va turistik maskani yoniga kelgusi yili “Piramit Tower”, “Beldersoy resort”, “Arda Khiva” kabi yana 25 ta shunday maskanlar qo‘shiladi.

O‘tgan hafta Bo‘stonlikda 10 milliard dollarlik “Dengiz shabadası” nomli yirik markazni barpo etishni boshlashga kelishib oldik. Shuningdek, mamlakatimizga dunyoning nufuzli “Swissotel”, “Sheraton”, “Ritz-Carlton”, “Novotel”, “Pullman”, “Marriott”, “Ibis”, “Mercurie” kabi 23 ta mehmonxona brendlari kirib kelmoqda.

Savdoni rivojlantirish bo‘yicha alohida kompaniya ochib, eksportni moliyalashtirish uchun 350 million dollar ajratildi. Natijada bu mablag‘dan berilgan har 1 dollar hisobiga tadbirkorlar 6 dollarlik eksport qildi. Kelgusi yilda yana 4,5 mingta bino va 6 ming gektar yer tadbirkorlarga taklif qilinadi.

Tadbirkorlar bu yil 11,5 trillion so‘mlik 3 mingta davlat mulki va 4 ming gektar yer sotib olib, o‘z biznesini boshladi. Kelayotgan yilda yana 4,5 mingta bino va 6 ming gektar yer tadbirkorlarga taklif qilinadi.

Uzoq yillardan buyon davlat monopoliyasida bo‘lgan yo‘llarni ta’minlash va saqlashga xususiy sektorning jalb qilish ishlarini kengaytirildi. Bu yil 260 kilometr yo‘llarga xizmat ko‘rsatish bo‘yicha ishlar tadbirkorlarga berildi. Kelgusi yilda bu ko‘rsatkich 3 ming kilometrta yetkaziladi.

Davomi 2-beta

## ISHBILARMONLIK XALQIMIZNING QONIDA BOR

Abayning iqrori

Chet el tekeanalaridan birida ko‘rgandim. Osiyo qit‘asida joylashgan bir mamlakat rahbari Italiyaga tashrif doirasida o‘tkazilgan matbuot anjumanida davlatning tabiiy boyliklari bilan maqtandi. Shunda Italiyaning o‘sha paytdagi bosh vaziri mamlakatda 5 milliondan ziyod tadbirkor faoliyat yuritayotgani va bu har qanday boylikdan ustun ekanini qayd etgandi.

Istaymizmi-yo‘qmi, zamonaviy dunyoda aholi turmush darajasi, mamlakat qudrati-yu kelajagi ko‘p jihatdan sog‘lom tadbirkorlik muhitiga bog‘liq. Shu bois, imkoniyatidan kelib chiqqan holda har bir oilani ishbiarmonlikka keng jalb qilish, shu orqali bandlekni ta’minlash, kambag‘allikni qisqartirish, aholi turmush darajasini oshirish davlatimiz siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylandi.

Davomi 4-beta

## Yangi O‘zbekiston orzusi

## ILM-FANDA QAYTA UYG‘ONISH DAVRI SOHA E‘TIBOR VA YANGILANISHLAR TUFAYLI RIVOJLANMOQDA

Muhammad Xorazmiy, Ahmad Farg‘oniy, Abu Rayhon Beruniy, Mirzo Ulug‘bek singari ulug‘ ajdodlarimizning matematika, fizika, astronomiya, tibbiyot, kimyo, tarix, adabiyot, falsafa fanlari bo‘yicha yaratgan boy ilmiy-ma‘naviy merosi o‘z vaqtida jahon tamadduniga munosib hissa qo‘shgan. Ular qo‘ygan tamal toshi hali-hanuz dunyo ilmi-fani rivojida mustahkam asos bo‘lib xizmat qilmoqda. Asrlar o‘tsa hamki, nomlari hurmat va ehtirom bilan tilga olinadigan buyuk allomalar qutlug‘ zaminimizda yetishib chiqqani olimlik, ilm-u ma‘rifatga tashnalik qonimizda borligiga ishora etadi.

Buyuklar avlodining tafakkur kuchi, ijodiy quvvati hech qachon so‘nmagan. Ilm istagida yongon yuraklar ko‘p bo‘lgan. Ammo imkoniyat va sharoit, o‘zini namoyon etishi uchun maydon yetarli emasdi.

Davlatimiz rahbari Prezidentlik faoliyatining ilk kunlarida ilm-fanni yangi bosqichga ko‘tarish kun tartibidagi masalalardan biri ekanini ta’kidladi. 2016-yilning 30-dekabr kuni mamlakatimizning yetakchi ilm-fan namoyandalari bilan uchrashuvidan so‘ng biz — olimlarda fanimiz kelajagiga umid uyg‘ongan, bir muddat e‘tiborsiz qoldirilgan soha rivojiga ishonch paydo bo‘lgan edi. Oradan 7-8 yil vaqt o‘tib, amaliyotda bu umidlar kutilgandan ham ko‘proq va yuqori darajada ro‘yobga chiqayotganiga guvoh bo‘lib turibmiz. Fanlar akademiyasi institutlari tiklangani, yangi oliy ta’lim muassasalari, xorijiy universitetlar filiallari ochilgani, akademiklar faoliyatining har tomonlama qo‘llab-quvvatlanayotgani fikrimiz dalilidir.

Davomi 3-beta

## DUNYONING ENG YIRIK SAVDO MAYDONI

Poyoniga yetayotgan yil O‘zbekiston uchun JSTga a‘zolik yo‘lida muhim qadam bo‘ldi

Jahon savdo maydonida erkin raqobat muhiti, katta bozorning barcha ishtirokchilari uchun teng huquq va imkoniyatlar, bir xil sharoitlar yaratish qoidasi bor. Bunda monopoliya, ayrim biznes egalari uchun qo‘shimcha imtiyozlar, alohida beriladigan yordamlarga yo‘l qo‘yilmaydi.

Bozor ishtirokchilari teng va adolatli qoidalar bo‘yicha o‘ynashga majbur, sog‘lom raqobatga dosh bera olinganlariga katta maydonda o‘mini saqlab qoladi. Bu dunyodagi eng nufuzli iqtisodiy tuzilma — Jahon savdo tashkilotiga a‘zo bo‘lishning asosiy shartlaridan biridir.

Dunyo iqtisodiyotida o‘z o‘rnini tobora mustahkamlab, hatto asosiy figuraga aylangan, jahon savdosining 99 foizini tashkil etayotgan yirik

xalqaro tashkilot haqida bejiz gap boshlamadik. Keyingi yillarda O‘zbekiston bu tashkilotga a‘zo bo‘lishga intilyotgani, shu yo‘lda aniq vazifalarni oldiga qo‘yganini fonda oddiy odamlar ham tez-tez JST haqida eshitmoqda. Mamlakatimiz 2026-yilda Jahon savdo tashkilotiga a‘zo bo‘lishni maqsad qilgani harakatlarni yanada faollashtirib yubordi.

Davomi 5-beta



# OʻZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOYEVNING TADBIRKORLAR BILAN UCHRASHUVDAGI NUTQI

## Boshlanishi 1-betda

“Tashabbusli byudjet” loyihasi doirasida yoʻllarni taʼmirlash ishlarining 92 foizi xususiy pudratchilar tomonidan amalga oshirildi. Kelgusida bu koʻrsatkichni 100 foizga yetkazamiz. Osiyo taraqqiyot banki ish-tirokida 86 ta tumanda 841 kilometr yoʻlni qurish toʻliq mahalliy pudratchilar tomonidan amalga oshirildi.

Temir yoʻli sohasida raqamlashtirish va operatsion samaradorlikni oshirish hisobiga yuk tashish muddatlari 40 foizga qisqardi. Eng muhimi, stansiyalarda yuklarni toʻlovsi tushirish vaqti 2 soatdan 3 kunga uzaytirilgani uchun tadbirkorlar yiliga 57 milliard soʻm mablagʻ tejamaqda.

Aviatsiya sohasida ham xususiy sektorning roli oshib bormoqda. Bugungi kunda xususiy aviakompaniyalar soni 14 taga yetdi. Qoʻshimcha 6 ta yuk va 16 ta yoʻlovchi havo kemasi olib kelindi. Buxoro, Namangan aeroportlari xususiy sheriklikka berildi, Andijon va Urganch aeroportlari boʻyicha tender davom etmoqda.

Mintaqadagi eng qulay va jozibador biznes muhitini saqlab qolish uchun barqaror soliq siyosatini davom ettiramiz. Jumladan, hayotiy zarur xarajatlarni moliyalashtirish uchun byudjet tushumlari qanchalik zarur boʻlmasin, asosiy soliqlar boʻyicha stavkalar oʻzgaraydi.

Shuningdek, 1-yanvardan boshlab yer yoki davlat mulki qoʻshimcha qiymat soligʻisiz sotiladi, mobil aloqa uchun aksiz soligʻi bekor qilindi, shahar chegarasidagi qishloq yerlariga 2 karra yer soligʻini hisoblash toʻxtatildi, nashriyot va matbaa korxonalarini foyda soligʻini toʻlashdan 5-yil muddatga ozod etiladi.

Bundan tashqari, IT-park rezidentlariga barcha turdagi soliqlarni toʻlashdan ozod etish boʻyicha berilgan imtiyozlar 2040-yilgacha uzaytiriladi, xususiy maktab va bogʻchalar, xorijiy oʻqituvchi va mutaxassislar uchun berilgan barcha soliq imtiyozlari 2030-yilgacha amal qiladi.

Jahon savdo tashkilotiga aʼzo boʻlish jarayonlari yakuniy bosqichga kirib bormoqda. AQSH, Xitoy kabi yirik davlatlar bilan kelishuvlarga erishdik.

Toʻgʻri, Jahon savdo tashkiloti qoidalariga zid boʻlgan imtiyozlarni bekor qilaymiz. Shu bilan birga, davlat tadbirkorlarni koʻllab-quvvatlash, ular adolati raqobat muhitida ishlashi uchun zarur boʻlgan barcha sharoitlarni yaratishda davom etadi.

Bu yil qoʻshilganimiz bilan chegaradan kirib-chiqish bilan bogʻliq bir qator masalalarga yechim topdik. Xususan, Andijon viloyatidagi 13-yil yopiq boʻlgan “Xonobod”, “Mingtepa” va “Qorasuv” chegaralar postlari hamda 8-yil ishlagan “Uchqoʻrgʻon” posti tiklandi. Natijada aholi va tadbirkorlarning yoʻli 100 kilometrga qisqardi.

Umuman, joriy yilning oʻtgan 11 oyida chegara orqali harakatlangan transportlar soni 400 mingga oshib, 3 millionga yetdi.

Kelgusi yilda “Gʻishtkoʻprik”, “Navoiy”, “Dovut ota”, “Shovot” va “Gulbahor” chegaralar postlarida qoʻshimcha koridorlar qurilib, oʻtkazish quvvati 5 karra oshiriladi.

Umuman, bugungi murakkab geosiyosiy sharoitga qarabmasdan, iqtisodiyotimiz 6,3 foizga oshib, 111 milliard dollardan koʻpaydi. Sanoat, qishloq xoʻjaligi va xizmatlar sohasiga 38 milliard dollar investitsiya kiritildi, eksport 26 milliard dollardan oshdi.

Yaqin-yaqingacha bunday raqamlarni tasavvur ham qila olmas edik.

Eng muhimi, bularning barchasini, avvalo, sizlar — faol tadbirkorlar bilan birgalikda uddaladi.

Sizlar bilan kechgan ochiq muloqotda koʻp tadbirkorlarimiz oʻz zimmasiga ijtimoiy masʼuliyat olib, ehtiyojmand odamlarni ishl qilishga vaqt ekanini bildirgan edi. Oʻtgan qisqa vaqt davomida tadbirkorlarimiz 387 ming nafar kambagʻal oila aʼzolari va 40 ming nafar nogironligi bor odamni daromadli qildi.

Mamlakatimizda kambagʻallik darajasi yil yakuni bilan 9 foizdan pasayadi. Aminmanki, oʻzaro ishonchga asoslangan hamkorligimizni shu surʼatda davom ettirsak, kelgusi yillarda bu koʻrsatkichni 6 foizga tushiramiz.

Shu oʻrinda vaʼdasining ustidan chiqib, yangi quvvatlar hisobiga minglab ish oʻrinlari yaratayotgan, zamonaviy texnologiya olib kirayotgan, yangi tashqi bozorlarni zabt etayotgan, iqtisodiyotimizning barqaror oʻsishiga munosib hissa qoʻshayotgan barcha tadbirkorlarimizga chin dildan minnatdorlik bildiraman.

Kelgusi yilda marrani katta olib, yalpi ichki mahsulotni 120 milliard dollarga, investitsiyani 42 milliard, eksporti 30 milliard dollarga yetkazishni reja qilaymiz. Banklar tarmoq va hududlar bilan 5 million aholini band qilish, 1,5 million odamni kambagʻallikdan chiqarish boʻyicha ishlaydi.

Bu marralarga erishish uchun, albatta, sizlar kabi tadbirkorlarimiz yordamiga tayanamiz. Shuning uchun ham bugun sizlar bilan uchrashib, ayrim masalalarni ochiq-oydin gaplashib olishga qaror qildim.

Birinchidan, mahallabay ishlaganimiz natijasida shu yilning oʻzida xususiy sektorda daromad soligʻi toʻlovchilar soni 365 mingga koʻpaydi.

Bu yaxshi albatta. Endigi vazifamiz — ularning daromadini oshirib, munosib hayot kechirishi uchun yetarli sharoit yaratishdan iborat.

Nega bu masalani alohida taʼkidlab aytaymiz?

Xususiy sektordagi ishchilarning 30 foizida rasmiy oylik maoshi 1 million soʻmdan kam qilib koʻrsatilgan. Ayniqsa, Qoraqalpogʻiston, Qashqadaryo, Samarqand, Surxondaryo, Sirdaryo va Xorazm viloyatlarida bu masala juda dolzarb. Bunday holat, asosan, toʻqimachilik, qurilish, qishloq xoʻjaligi,

savdo va umumiy ovqatlanish sohalarida uchrayapti. Lekin koʻrsatilayotgan bu oylik ish haqi haqiqatga qanchalik mos keladi?

Birgina misol. Toʻqimachilik korxonalarini boʻsh ish oʻrinlariga 50 ming odam izlamogda. Ular “3 million soʻmgacha oylik, bepul ovqat va yoʻl-kira toʻlashga tayyorman”, deb eʼlon berayapti. Hisobotda esa oylik maosh va soliqlar miqdorini ancha kam qilib koʻrsatmoqda.

Yaqinda toʻqimachilik va charm sanoati korxonalarini qoʻllab-quvvatlash boʻyicha tegishli hujjat qabul qilamiz. Bu sohalarda kamida 2,5 million soʻm oylik maosh toʻlaydigan, 15 foiz ishchisi ehtiyojmand oiladan boʻlgan tayyor mahsulot chiqaruvchi tadbirkorlarga yengilliklar beramiz. Bunday korxonalar uchun foyda soligʻi ham, ishchisining daromad soligʻi miqdori ham 1 foiz etib belgilanadi.

Bu imtiyozga javoban toʻqimachilik va charm sanoati korxonalarini 50 ming ehtiyojmand odamni ishga olmoqda. Boshqa tarmoqlar uchun ham bu yil tugaydigan imtiyozlarni mana shunday ijtimoiy mezon bilan uzaytirishga tayyormiz.

Elektrotexnika, qurilish materiallari, savdo va xizmatlar sohasidagi katta-katta ish beruvchilar ham kelgusi yilda kamida 300 ming aholini kambagʻallikdan chiqarish boʻyicha oʻziga ijtimoiy majburiyat olsa, ulardan minnatdor boʻlar edik.

Ikkinchidan, iqtisodiy oʻsish rejalariga chiqish uchun tadbirkorlarning loyihalari uchun zarur mablagʻlarni topib beraymiz.

Yirik davlat kompaniyalarini transformatsiya qilib, tashqi bozorga chiqaraymiz. Ular ham harakat qilib, oʻzi pul olib kelishni boshladi.

Endi tadbirkorlarimiz ham banklar beradigan kredit bilan cheklanib qolmasdan, xalqaro standartlarga moslashib, chetdan mustaqil resurs jalb qiladigan vaqt keldi. Eng muhimi, xalqaro moliya tashkilotlari bu borada biz bilan yaqindan hamkorlik qilishga tayyor.

Mana, “Korzinka” supermarketlartarmogʻi, Samarqand viloyatidagi “Merops farm”, “Sam Rafoat tekstil”, Xorazm viloyatidagi “Tillo Domo” kabi faol korxonalar bu ishlarni boshlagan. Bunday tadbirkorlarimizni 50-100 taga yetkazish uchun nima qilish kerak?

Savdo-sanoat palatasi raisi D.Vahobovga bu yoʻnalishda xalqaro konsalting kompaniyalarini jalb qilib, ikki oyda tadbirkorlarning tashqi moliya bozorlariga chiqishiga koʻmaklashadigan markaz oʻzlashtirish vazifasi topshiriladi. Bu orqali kelgusi yilning oʻzida kamida 100 ta mahalliy kompaniyani xalqaro moliya bozorlari bilan ishlashga oʻrgatish zarur.

Uchinchidan, mamlakatimizda ham 5 mingdan ziyod ishchisi bor, yillik daromadi 1 trillion soʻmdan oshgan, kamida 100 milliard soʻm miqdorda soliq toʻlayotgan 142 nafar “champion” tadbirkorlar paydo boʻladi.

Bu korxonalar eng ilgʻor texnologiyalar

va yangicha boshqaruvni joriy etgan, oʻzlari arzon resurs olib kelmoqda, kredit va soliq toʻlovlarini oʻz vaqtida toʻlayapti, muddati oʻtgan qarzi yoʻq. Muhimi, har kuni yangilikka intilib, izlanishdan toʻxtamayapti. Ular bir tarmoqli kompaniyadan koʻp tarmoqli korporatsiyaga aylanib, yondosh sohalarda rivojiga ham katta hissa qoʻshyapti.

Biz boshqa salohiyatli tadbirkorlarimizni ham qoʻlidan mahkam ushlab, sharoit yaratib, qoʻllab-quvvatlab, “champion” tadbirkorlarni koʻtarishimiz va koʻpaytirishimiz kerak.

Bunday tadbirkorlarga yer va binoni toʻgʻridan-toʻgʻri berishga, davlat korxonalarini ham uzoq muddatga boshqaruvga topshirishga tayyormiz. Faqat tegishli qararlarda koʻrsatilgan obyektlar bilan cheklanmasdan, Hukumatning rejasida boʻlmagan takliflarni ham koʻrib chiqib, unikal obyektlarni ham xususiy sheriklikka beramiz.

Harbiy sanoat, dronlar ishlab chiqarish, IT va sunʼiy intellekti keng rivojlanishida ular bilan manfaatli hamkorlikni yoʻlga qoʻyishga chaqiramiz.

Bosh vazir A.Aripov har chorakda, Bosh vazir oʻrinbosarlari, vazirlar, banklar va hokimlar esa har oyda bunday tadbirkorlar bilan uchrashib, ularning korxonasiga borib, har biri boʻyicha masalalarni joyida hal qilib beradi.

Bu ishlar Prezident nazoratida boʻladi. Tadbirkorlarimizning eksport borasidagi ishlarni qoʻllab-quvvatlash, bu sohada yuzaga kelayotgan ayrim masalalarni hamkorlarimiz bilan bir stolda oʻtirib, muhokama qilib, oʻzaro manfaatli yechim topish zarur. Kerak boʻlsa, ichki bozorni himoyalash uchun kerakli javob choralarini koʻrish lozim.

Bosh vazir oʻrinbosarlari J.Qoʻchqorov, J.Xoʻjayev, investitsiyalar, sanoat va savdo vaziri L.Qudratovga bir hafta muddatda tadbirkorlar bilan gaplashib, tarif va notarif siyosatimizga yangicha yondashuvlarni joriy qilish boʻyicha takliflarni ishlab chiqish, Jamoatchilik kengashi bilan shu kabi masalalarga tezkor yechim topish uchun Soliq va bojxona masalalari boʻyicha tashabbuslar platformasini tashkil qilish vazifasi topshiriladi.

Bu platforma kelgusi yil yanvar oyidan ishga tushishi kerak va har bir tashabbus tadbirkorlar ishtirokida Jamoatchilik kengashida muhokama qilib borilishi shart.

Toʻrinchidan, dunyodagi 10 ta eng boy kompaniyaning 7 tasi IT va moliyaviy xizmat sohalaridan chiqqan.

Mamlakatimiz aholisi 40 millionga yaqinlashmoqda, uning 56 foizi yoshlardan iborat. Shu raqamlar oʻzi sohada katta salohiyat, ish oʻrni, yuqori daromad mavjud ekanini koʻrsatadi.

IT, moliyaviy xizmatlar, innovatsiyalar, telekommunikatsiya kabi sohalarni xususiy korxonalar toʻrivojlandiradi. Yaratib berilgan sharoit hisobiga qiymati 1 milliard dollardan oshgan “TVS Oʻzbekiston” va “Uzum”

xususiy kompaniyalari paydo boʻlganini bunga yaqqol misol sifatida keltirish mumkin.

Bunday kompaniyalar koʻpayishi uchun mavjud toʻsiqlarni bartaraf etib, hamma sharoitni yaratishga tayyormiz. Xususan, ularga rivojlanish va tadqiqot markazlari uchun laboratoriya jihozlarini, texnologik uskunalarini bojsiz olib kelishga ruxsat beramiz.

IT, moliyaviy xizmatlar, tadbirkorlikni moliyalashtirish, eksport, turizm, xizmatlar, yashirin iqtisodiyotni qisqartirish kabi dolzarb masalalar boʻyicha Jamoatchilik kengashida ekspert guruhlarni tashkil qilish kerak.

Bu guruhlar har oyda bir marta tadbirkorlar bilan uchrashib, tizimli muammolarni hal etish boʻyicha takliflarni Jamoatchilik kengashi muhokamasiga kiritib boradi.

Jamoatchilik kengashiga yana bir muhim masalani topshirmoqchiman.

Oxirgi 3-yilda Bojxona kodeksining 100 dan ortiq muddasiga oʻzgartirish kiritildi. Lekin uning qoidalari Jahon savdo tashkilotining ham, tadbirkorlarning ham talabiga mos emas.

Shu bois, J.Qoʻchqorov, D.Vahobov Jamoatchilik kengashi aʼzolari hamda Qonunchilik palatasi deputatlari bilan chuqur muhokamalar oʻtkazib, kelgusi yil 1-maygacha har tomonlama yangilangan Bojxona kodeksi loyihasini ishlab chiqish uchun masʼul boʻladi.

Beshinchidan, ichki bozor bilan cheklanib, eksport masalasi bilan jiddiy shugʻullanmasak, “champion” tadbirkorlar koʻpaymaydi, xalqimiz boyimaydi. Valyuta balansini taʼminlash ham qiyin boʻladi.

Salohiyatimiz yuqori boʻlgan toʻqimachilik, elektrotexnika, oziq-ovqat sanoati kabi sohalarda 30 foiz imkoniyatlarini ishlayapmiz, xolos. Hozir ip-kalavani qayta ishlash darajasi 50 foiz boʻlsa, bu xom ipkada — 75 foiz, misda — 64 foiz, meva-sabzavotda esa 16 foizni tashkil etmoqda.

Mamlakatimizdagi 1 mingga yaqin konlarda 100 dan ortiq turdagi mineral xomashyo bazasi mavjud. Tasdiqlangan zaxiralarning qariyb 1 trillion dollarga baholangan. Yildan-yilga qazib olishni koʻpaytiraymiz. Lekin sanoatda yuqori texnologik ishlab chiqarish ulushi 25 foizni tashkil etadi. Albatta, bu kam.

Yanvar oyida auktsionga chiqariladigan 400 ta yangi konning roʻyxatini tasdiqlab, tadbirkorlariga eʼlon qilamiz.

Shu bois, xomashyoni chuqur qayta ishlab, yuqori qoʻshilgan qiymat va eksportni keskin oshirish boʻyicha yangi tashabbuslarimizni eshitishga tayyormiz.

Umuman, J.Qoʻchqorov, D.Vahobovga tegishli tarmoqlar masʼullarni birgalikda ikki oy muddatda har bir xomashyo yuzasidan chuqur qayta ishlash va yuqori texnologik ishlab chiqarishni tashkil qilish boʻyicha besh yillik dastur ishlab chiqish vazifasi topshiriladi.

Yana bir masala — tadbirkorlar meva-sabzavotni asosan tomorqadan olayotgani uchun eksportga bir turdagi mahsulotni uluksiz va sifatli yetkazib berishga qiyinalyapti. Shuning hisobiga eksportdan kelayotgan tushum ham past.

Kelgusi yilda 3,5 milliard dollarlik meva-sabzavot eksport qilish uchun barcha imkoniyat bor. Shu bois, 1 million gektar meva-sabzavot yerlarini 760 ta urugʻ yetishtiruvchi va 824 ta eksportchi korxonaga nomma-nom biriktirdik. Bu ishlarni har bir mahallada tizimli tashkil qilish uchun Oʻsimliklar karantini va himoyasi agentligi va banklarning 5 mingga yaqin xodimlari biriktirildi.

Shuningdek, Toshkent va Namangan viloyatlarida yangi tajribani boshlayapmiz. Bunda paxta va gʻalladan boʻshaydigan yerlar 50 gektargacha yirik lotlarda auktsionga qoʻyilib, sanoatlashgan plantatsiya tashkil etish uchun professional investorlarga sotiladi.

Bu yerlardagi 20 sotixgacha maydonda “shok” usulida muzlatkich, kalibrova va qadoqlash sexlari qurishga ruxsat beriladi. Yetishtirilgan meva-sabzavotni qayta ishlash uchun xarid qilingan uskunalar 1 milliard soʻmgacha subsidiya ajratiladi.

Qadri biznes vakillari! Barchamiz tadbirkorlikni rivojlantirish uchun birgalikda harakat qilsak, bugun belgilab olgan maqsadlarimizga albatta erishamiz.

Bir fikrni doimo esda tutishingizni istar edim: Oʻzbekistonda tadbirkorlik harakati ortga qaytarib boʻlmaydigan katta kuchga aylandi.

Biz davlat miqyosida qanday katta maqsad va vazifalarni oʻz oldimizga qoʻymaylik, ularni amalga oshirishda butun xalqimiz bilan birga, avvalo, sizlarga tayanamiz.

Sizlarni Yangi Oʻzbekistonni barpo etish yoʻlida hal qiluvchi kuch deb bilamiz.

Tadbirkorlarimiz qancha boy boʻlsa, xalqimiz shuncha farovon yashaydi, davlatimiz shuncha qudratli boʻladi.

Tadbirkorning yutugʻi — bu butun xalqimizning yutugʻi.

Ana shunday olujanon ishda men doimo sizlar bilan birgaman. Sizlar ezgu maqsad bilan ilgari suradigan har qanday gʻoya va tashabbusni qoʻllab-quvvatlashga tayyorman.

Ishonchim komil, oʻz navbatida, sizlar ham jamiyatimizning eng ilgʻor vakillari boʻlib, islohotlarimizni yanada ilgari surishda Prezidentga tayanch va suyanch boʻlasizlar.

Oʻz shaxsiy ibratingiz bilan yurtimizda ilgʻor tadbirkorlar maktabini yaratishga munosib hissa qoʻshasiz deb ishonaman.

Fursatdan foydalanib, barcha tadbirkorlarimizni yaqinlashib kelayotgan Yangi yil bilan chin dildan tabriklayman.

Barchangizga sihat-salomatlik, ulkan yutuq va omadlar, xonadonlaringizga baxt, fayzu baraka tilayman.

# MAMLAKATIMIZ IQTISODIYOTI TAYANCHI BOʻLGAN TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH — MUHIM STRATEGIK VAZIFA

## Boshlanishi 1-betda

Yil yakuni bilan ajratilgan jami kreditlar 275 trillion soʻmni tashkil qiladi. 2025-yilda bu koʻrsatkich 300 trillion soʻmdan oshishi hisob-kitob qilingan. Ayniqsa, kichik biznesga beriladigan kreditlar ulushi hozirgi 28 foizdan 40 foizga oshirilib, 120 trillion soʻmga yetkaziladi.

Tadbirkorlar ehtiyojidan kelib chiqib, banklar 2025-yilda chetdan davlat kafolatsiz 6 milliard dollar olib kelishni rejalashtirgan. Faktoringga keng yoʻl ochilgani natijasida shu yilning oʻzida 100 million dollarlik bunday xizmatlar koʻrsatilgan.

Biznes uchun yoʻl, suv, elektr, gaz, temir yoʻl kabi infratuzilimalar uchun bu yil 35 trillion soʻm yoʻnatirilgan. Kelgusi yil yana 43 trillion soʻm ajratilishi rejalashtirilgan.

Korxonalarini barqaror energiya bilan taʼminlash uchun elektr ishlab chiqarish 82 milliard kilovatt-soatga yetdi. Bu yil ishga tushgan 6,3 milliard dollarlik

17 ta energiya quvvatlari hisobiga, kelgusi yilda qariyb 90 milliard kilovatt-soat elektr ishlab chiqariladi. Mazkur ishlarni davom ettirib, 2025-yilda yana 6,4 milliard dollarlik 25 ta loyiha doirasida 4,8 gigavatt yangi quvvatlar barpo etiladi.

Hozirgi kunda yurtimizda mustaqil energiya ishlab chiqaruvchilar soni 24 taga yetdi. 2025-yilda ilk bor elektr energiyasining onlayn ulgurji bozori ishga tushadi. Tajriba sifatida Samarqand, Jizzax va Sirdaryodagi elektr tarmoqlari xususiy sektorga beriladi.

Turizm sohasi ham rivojlanmoqda. Tadbirkorlarning 6,5 trillion soʻm sarmoyasi bilan 24 ming oʻrinli mehmonxonalar ishga tushdi. Kelgusi yilda mehmon oʻrinlari yana 30 mingga oshadi. Bu yil ishga tushgan 17 ta yirik savdo va turistik maskan yoniga kelasi yili yana 25 ta shunday majmualar qoʻshiladi.

Savdoni rivojlantirish boʻyicha alohida kompaniya tashkil etilib, eksportni moliyalashtirish uchun 350 million dollar berildi. Natijada bu mablagʻdan berilgan har 1 dollar orqali tadbirkorlar 6 dollarlik eksport qildi. Kelasi yil yana 300 million dollar yoʻnatiriladi.

Tadbirkorlar bu yili 11,5 trillion soʻmlik 3 mingga davlat mulki va 4 ming gektar yerni sotib olib, biznesini boshladi. Kelgusi yil yana 4,5 ming bino va 6 ming gektar yer tadbirkorlarga taklif qilinadi.

Uzoq yillardan beri davlat monopoliyasida boʻlgan yoʻllarni taʼmirlash va saqlashga xususiy sektorni jalb qilish kengaytirildi. Bu yil 260 kilometr yoʻllarni saqlash ishlari tadbirkorlarga berildi. Kelasi yili bu 3 ming kilometrga yetkaziladi. Osiyo taraqqiyot banki ish-tirokida 86 ta tumanda quriladigan 841 kilometr yoʻllar toʻliq mahalliy pudratchilar tomonidan amalga oshirildi.

Temir yoʻli sohasida raqamlashtirish va operatsion samaradorlikni oshirish hisobiga yuk tashish muddatlari 40 foizga qisqardi. Muhimi, stansiyalarda yuklarni toʻlovsi tushirish vaqti 2 soatdan 3 kunga uzaygani uchun tadbirkorlar yiliga 57 milliard soʻm tejayapti.

Aviatsiya sohasida xususiy kompaniyalar soni 14 taga yetdi. Qoʻshimcha 6 ta yuk va 16 ta yoʻlovchi havo kemasi olib kelindi. Buxoro, Namangan aeroportlari xususiy sheriklikka berildi, Andijon va Urganch aeroportlari boʻyicha tender davom etyapti.

Davlatimiz rahbari qulay va jozibador biznes muhitini saqlab qolish uchun barqaror soliq siyosati yuritilishini taʼkidladi.

Jumladan, hozirgi kunda byudjet tushumlari qanchalik zarur boʻlmasin, asosiy soliqlar boʻyicha stavkalar oʻzgaraydi. Shuningdek, 1-yanvardan boshlab yer yoki davlat mulki qoʻshilgan qiymat soligʻisiz sotiladi, mobil aloqa uchun aksiz soligʻi bekor qilindi. Shahar chegarasidagi qishloq yerlariga 2 karra yer soligʻini hisoblash toʻxtatildi. Nashriyot korxonalarini foyda soligʻini toʻlashdan 5-yilga ozod etiladi.

Bundan tashqari, IT-park rezidentlariga barcha turdagi soliqlarni toʻlashdan ozod etish boʻyicha imtiyozlar 2040-yilgacha uzaytiriladi. Xususiy maktab va bogʻchalar, xorijiy oʻqituvchi va mutaxassislar uchun berilgan barcha soliq imtiyozlari 2030-yilgacha amal qiladi.

Maʼlumki, Oʻzbekistonning Jahon savdo tashkilotiga aʼzo boʻlish jarayoni yakuniy bosqichga kiryaпти. Iqtisodiyotlar va tashkilot qoidalarga zid boʻlgan imtiyozlar bekor qilinayapti. Shu bois, tadbirkorlarning adolati raqobat muhitida ishlashi uchun barcha sharoitlar yaratilishi aytilди.

Biznes uchun transport va logistika masalasi juda muhim. Shu bois, qoʻshni davlatlar bilan kelishilub, “Xonobod”,

“Mingtepa”, “Qorasuv” va “Uchqoʻrgʻon” chegaralar postlari tiklandi. Kelgusi yilda “Gʻishtkoʻprik”, “Navoiy”, “Dovut ota”, “Shovot” va “Gulbahor” chegaralar postlarida qoʻshimcha koridorlar qurilib, oʻtkazish quvvati 5 karra oshiriladi.

Umuman, murakkab geosiyosiy sharoitga qarabmas, bu yil mamlakatimiz iqtisodiyoti 6,3 foizga oshib, 111 milliard dollardan koʻpaydi. Sanoat, qishloq xoʻjaligi va xizmatlar sohasiga 38 milliard dollar investitsiya kirdi, eksport 26 milliard dollardan oshdi.

Davlatimiz rahbari bu natijalarda, aholini ish bilan taʼminlash va kambagʻallikni qisqartirishda tadbirkorlarning oʻrni katta ekanini taʼkidlab, ularning minnatdorlik bildirdi. Bu surʼatni davom ettirib, kelgusi yilda yalpi ichki mahsulotni 120 milliard dollarga va eksportni 30 milliardga yetkazish, 42 milliarddan ziyod investitsiya jalb etish moʻljallanmoqda.

Ushbu marralarga erishish uchun tadbirkorlikka yanada keng imkoniyatlar berish zarur. Uchrashuvda shular haqida fikr almashildi. Tadbirkorlar biznes qoidalarini soddalashtirish, xomashyoni chuqur qayta ishlash, yuqori qoʻshilgan qiymat va eksportni keskin oshirish boʻyicha takliflarini aytdi. Barcha fikr-mulohazalar ochiq muhokama qilinib, kerakli choralar-tadbirlar belgilandi.

Avvalo, xususiy sektorda ishlovchi odamlarning daromadini koʻpaytirish muhimligi taʼkidlandi. Shu maqsadda kamida 2,5 million soʻm oylik maosh toʻlaydigan, 15 foiz ishchisi ehtiyojmand oiladan boʻlgan,

# ILM - FANDA QAYTA UYG'ONISH DAVRI

## SOHA E'TIBOR VA YANGILANISHLAR TUFAYLI RIVOJLANMOQDA



Shavkat AYUPOV,  
O'zbekiston Fanlar akademiyasi  
prezidenti, akademik, O'zbekiston  
Qahramoni

### Boshlanishi 1-betda

2016-yilda ilm-fanga e'tibor qaratishga qanday zarurat bor edi? Chunki o'sha paytgacha, fanimiz ham, ta'lim tizimi ham ancha og'ir ahvolda bo'lganini inkor eta olmaymiz. Buni ochiq aytish kerak. Umumiy o'rta ta'lim maktablarini ko'z oldingizga keltiring. Ta'lim sifati haminqadar, o'qituvchilar xizmat vazifasiga kirmaydigan, dalada paxta terimi yoki obodonlashtirish ishlariga jalb etilgan, muallimning obro'si va mavqei tushgan holatlar o'z-o'zidan ta'lim sifatiga salbiy ta'sirini ko'rsatmasdan qolmadi. Bu kabi holatlar oliy ta'lim tizimida ham kuzatildi. Ilm-fan jar yuqosiga kelib qolganini o'zimizning taqdirimizda qattiq his qildik. Fanlar akademiyasi yopilish ahvolda edi. Masalan, Matematika instituti 2012-yilda akademiya tarkibidan chiqarilib, Milliy universitet huzuriga o'tkazildi. Lekin o'sha paytda institut maqomini saqlab qolganimiz katta yutuqimiz bo'ldi. Ammo ko'pgina institutlar taqdiri ancha og'ir bo'lgan. Masalan, yadro fizikasi, fizika-texnika institutlari yopilib ketgan, ijtimoiy fanlar institutlarining ko'pi oliy ta'lim muassasalariga berib yuborilgan, soha e'tibor va yangilanishga muhtoj edi.

Prezidentimizning olimlar bilan uchrashuvidan so'ng o'zbek ilm-fani hayotida qayta uyg'onish davri boshlandi. Tizimdagi bir necha ilmiy-tadqiqot muassasalarini o'z faoliyatini qaytadan tikladi.

Ta'limning barcha pog'onalarida matematika ta'limi sifatini oshirishga katta e'tibor qaratildi. Shu bilan birga, va masalalar yondashishda matematik olimlarni, ayniqsa, Matematika instituti mas'uliyati va vakolatiga katta e'tibor berildi.

Men ko'p yillar Matematika institutida faoliyat yuritdim. Barcha jarayonlar ko'z oldimda kechdi. Bu fan so'ngi yillarda har qachongidan ko'ra yuksalish pallasiga kirgani bir olim sifatida meni quvontiradi. Bugun institut mamlakat ehtiyoji uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlash bo'yicha yirik ilmiy markazga aylangan. Bu yerda funksional



analiz, differensial tenglamalar, ehtimollar nazariyasi va algebra bo'yicha ilmiy maktablar faoliyat yuritmoqda. Olib borilayotgan tadqiqotlar jahon miqyosida e'tirof etilmoqda.

### Uchinchi Rennans orzusi

Ilm-fan va milliy taraqqiyot — mushtarak tushuncha. Qolaversa, jamiyat oldida turgan dolzarb masalalarni ilm-fansiz yechish, taraqqiyotni usiz tasavvur qilish mumkin emas. Yashilarning ilm bilan shug'ullanishiga sharoit yaratilgani, doktoranturaga o'rinlar ajratilgani e'tiborga molik qadamlardir.

Barcha sohalarida akademik fanga tayanish, kelgusi samaradorlikni ilmiy jihatdan tadqiq etish faqat taraqqiyotga xizmat qilishi shubhasiz. Shu bois, ilm-fanning barcha yo'nalishlarini isloh qilishga zarurat bor edi. Ammo fan ta'limga rivojlana olmasligi ham ayon haqiqat.

Uchinchi Rennans orzucidamiz. Bugun yurtimizda bunga zarur poydevor qo'yilmoqda. Ilg'or ta'lim tizimini yaratish g'oyasi ilgari surildi. Prezident maktablari ochilishidan ko'zda tutilgan maqsad ham shu bo'ldi. Bu maktablar ta'lim standartlari umumta'lim maktablariga, ta'lim tizimiga tatbiq etilayotir. Shuningdek, matematika, fizika, kimyo, biologiya va boshqa fanlar bo'yicha faoliyat boshlagan ixtisoslashtirilgan maktablarda bugun yurtimizning yangi taraqqiyot bosqichiga ko'tarishga qodir o'g'il-qizlar tahsil olmoqda. Ularning salohiyatini ro'yogga chiqarish eng katta vazifa, buning uchun zarur barcha shart-sharoitlar yaratilgan. Hududlardagi maktablarda ta'lim sifati ularnikidan qolishmasligiga e'tibor qaratilayapti. Bular ta'lim tizimidagi dastlabki qadamlar. Sohadagi oqsoqliklarni tuzatish uchun 7-8 yil kamlik qiladi. Buning uchun balki 10-20 yil kerak bo'lar. Ammo xayrli tashabbuslar allaqachon qanot yozib, ilk samarasini bera boshladi.



Ta'lim sifatini ko'tarishga katta ahamiyat qaratilmoqda, yoshlarimiz dunyo ta'limi sahnalarida yurt sharafini munosib himoya qilyapti. Bu Uchinchi Rennansga poydevor qo'yayotgan yoshlar yetishib kelayotganiga ishora etmoqda. Ammo ularning malakali kadr sifatida shakllanishiga 5-10 yil bor, nazarimda.

So'nggi yillarda o'quvchilarning dunyo olimpiadalari ishtiroki soni sezilarli darajada oshdi. G'olib o'quvchilarni munosib rag'batlantirish maqsadida yangi uchun ta'limni qaytadan tiklash kerak. Demak, yuksalishning asosi faqat va faqat bilimga borib taqaladi. Ta'lim millatni

ishlatish uchun bilim, salohiyatli kadrlar kerak. Demak, yuksalishning asosi faqat va faqat bilimga borib taqaladi. Ta'lim millatni

ishlatish uchun bilim, salohiyatli kadrlar kerak. Demak, yuksalishning asosi faqat va faqat bilimga borib taqaladi. Ta'lim millatni

ishlatish uchun bilim, salohiyatli kadrlar kerak. Demak, yuksalishning asosi faqat va faqat bilimga borib taqaladi. Ta'lim millatni



yaqon bo'lsa birlashtiradi, mamlakatni kuch-qadrati, dunyoga mashhur qiladi.

Ta'lim sifatini ko'tarishga katta ahamiyat qaratilmoqda, yoshlarimiz dunyo ta'limi sahnalarida yurt sharafini munosib himoya qilyapti. Bu Uchinchi Rennansga poydevor qo'yayotgan yoshlar yetishib kelayotganiga ishora etmoqda. Ammo ularning malakali kadr sifatida shakllanishiga 5-10 yil bor, nazarimda.

### Dunyoga ochiqlik — fanga ochiqlik

Mamlakatimiz siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri dunyoga ochiqlikdir. Pragmatik, ochiq va vazmin tashqi siyosat ilm-fan rivojiga ham munosib ta'sir ko'rsatmoqda. Yurtimizda Uchinchi Rennans poydevorini barpo etish uchun xalqaro hamkorlik muhim ahamiyat kasb etadi.

Yangi Uyg'onish hodisasi — vatanimizni butun dunyoga yaxshi tomondan tanitadigan ulkan voqe'lik, taraqqiy etish asosi. Qolaversa, dunyo uchun mamlakatimiz imiji, ya'ni obro'sini ta'minlaydi. Bizda buning uchun yetarli imkon bor.

Hozir tabiiyki bir zamonada yashayapmiz. Uzoq-yoqin mamlakatlardagi notinchliklar bizni yanada sergaklikka undaydi. Shunday murakkab davrda chetdan yordam kutish qiyin. Hammasi o'zimizga bog'liq bo'lib qolyapti. Ya'ni biz o'sha tabiiyki zamonaga tayyor bo'lishimiz, ilmu ma'rifat bilan qarshi tura olisimiz zarur.

Shu o'rinda mamlakatimiz olimlari tomonidan so'nggi yillarda erishilgan, xalqaro

e'tirofqa munosib ko'rilayotgan ilmiy yutuqlar haqida to'xtalmoqchi edim. Olib borilgan ilmiy tadqiqotlar asosida B va C virusli gepatit, shuningdek, OITS belgilarini, etiketli birikmalar olish va radioizotop mahsulotlar ishlab chiqarish texnologiyalarini aniqlash uchun immunofertment test tizimlari ishlab chiqildi.

Bugungi kunda respublikamiz sog'liqni saqlash muassasalari tibbiy radionuklidlar bilan to'liq ta'minlanishi bilan birga, ushbu mahsulotni ko'plab xorijiy mamlakatlarga yiliga o'nlab milliard so'm miqdorida eksport qilish yo'lga qo'yilgan katta yutuq.

O'zbekiston hududlarining potentsial seysmik xavfini baholagan holda "O'zbekiston hududini umumiy seysmik rayonlashtirish" xaritalari

2024-yilda o'zbekistonlik va amerikalik arxeologlarning hamkorlikda olib borgan ilmiy izlanishlari natijasida Zomin tog'larida qadimgi Buyuk ipak yo'lidagi nomi'na'um shaharlar topildi hamda ushbu tadqiqot ishi National Geographic talqiniga ko'ra, 2024-yilda arxeologiya sohasida qilingan 7 ta eng yaxshi kashfiyotdan biri sifatida e'tirof etildi.

Yaratilayotgan kashfiyotlar ro'yxatini uzoq davom ettirish mumkin. Bu har birimizga ilm-fanning ertangi kuni haqida umidli mujdalar beradi.

### Sun'iy intellekt taraqqiyotini belgilaydimi?

So'nggi yillarda sun'iy intellekt haqida ko'p gapira boshladik. Fikrimizcha, yaqin kelajakda bu sun'iy idrok taraqqiyotini belgilab beradigan o'xshaydi. Hatto sun'iy intellekt rivojlanmagan davlatlar xavfsizligi katta so'roq ostida qoladi, degan qarashlar ham yo'q emas. Bunga tayyor bo'lishimiz uchun ham bilim kerak.

Sun'iy intellekt kundalik hayotimizning ajralmas qismiga aylandi. Chunki "aqli" quzaytirilgan 80 foizi sun'iy intellektning qaysidir jihati o'zida mujassam etgan. Kelajakda sun'iy intellekt ko'pgina kasblar o'rni egallaydi, degan taxmin yo'q emas. An'anaviy kasblarga ehtiyoj kamayib yoki yo'q bo'lib ketishi mumkin. U holda umumiy kutilmagan yangi mutaxassisliklar chiqadi. Bu paytda yuqori malakali dasturchi va mutaxassislar suv bilan havodek zarur. Barcha hududlarda IT parklar tashkil etilyapti, raqamli texnologiyalar markazlari ish boshlamoqda. Bu sohada mutaxassislar tayyorlashga xizmat qiladi. "Bir million dasturchi" loyihasi ana shu maqsadni o'zida mujassam etgani bilan ahamiyatli. Ilm-fan hozir ko'p sohalarida sun'iy intellektga tayanmoqda. Tadqiqotlar olib borish tezlashib ketdi. Tajribani hozir kompyuterda qilish mumkin. Sun'iy intellekt ko'p jarayonlarni tezlashtirib yubordi. Albatta, fan rivojiga unga ehtiyoj seziladi.

### Mamlakatimizdagi ilm-fan taraqqiyotining ahvoli

Ilm-fan bilan ishlab chiqarish integratsiyasi qonqarlik emas. Iqtisodiyot rivojida Fanlar akademiyasining o'rni sezilmayapti, fan o'z yo'lga, ishlab chiqarish o'z yo'lga ketmoqda. Fan iqtisodiyot ehtiyojlaridan kelib chiqib rivojlansa, yaxshi bo'lardi.

Ayni paytda yurtimizda ilmiy markazlardagi ko'p izlanishlar xalqaro miqyosda tan olingan, e'tirof etilgan. Faqat ular fan sifatida qolib ketgan, u iqtisodiyot bilan birga rivojlansa, taraqqiyotga xizmat qiladi.

Ilgari vazirlıklarda o'z sohasing institutlari bo'lardi. Ular sof fan bilan ishlab chiqarish o'rtasidagi bog'lovchi halqa edi. Shu jarayonni tiklash va faollashtirish kerak. Hozir ham tibbiyot, farmatsevtika, energetika e'tiborga molik yaxshi-yaxshi ishlanmalar bor. Ularni ishlab chiqarishga taqib etishni jadallashtirish zarur. Bu borada xorijiy aloqalarning yaxshilangani muhim ahamiyat kasb etyapti. Chunki ilm-fan yakka o'z rivojlanmaydi. Shu ma'noda, Xitoy Fanlar akademiyasi bilan hamkorlik kelgusida samara berishiga ishonchkom komil. Chunki Xitoy olimlari ilm-fan yangiligini bevostita ishlab chiqarish jarayoniga tatbiq eta olaypti. Men har yili Xitoydagi universitetlar, ilmiy-

tadqiqot markazlarida ishlab kelaman. Hozir hatto AQSH, Yevropadagi yetakchi olimlar ham Xitoyda izlanish olib boryapti. Chunki u mamlakatda fan bilan shug'ullanish uchun yaxshi sharoit yaratilgan. Xitoylik olimlar biz bilan hamkorlik qilishga intilyapti. Alqolalarimiz mahsuli sifatida ikki marta Xitoy — Markaziy Osiyo matematik olimlar forumini o'tkazdik. Birinchisi Xitoyda 2019-yilda o'tkazilgan bo'lsa, ikkinchisi o'tgan yili Toshkentda tashkil etildi. Hamkorlik ancha kuchaygan. O'zbekistonda Xitoyning yetakchi universitetlari filiallari ochildigani ham hamkorlik aloqalari samarasidan darak beradi.

Bizning juda ko'p iqtidorli talabalarimiz chet elda tahsil olyapti. Ularning salohiyatidan qanday foydalanishimiz kerak, degan savol tug'ilishi tabiiy. Yoshlarimiz dunyoning yetakchi oliy o'quv yurtlarida olgan bilimni yurtimiz ravnaqi uchun yo'naltirish zarur. Bu boradagi ishlarni yanada takomillashtirishimiz shart.

Ishlanmalarni tijoriylashtirish borasida ham ishlar ko'ngildagidek emas. Muayyan ishlar qilinmoqda, bu bilan ko'proq nodavlat markazlar shug'ullanyapti. Bu boradagi ishlarni yanada jadallashtirish oldimda turgan muhim vazifa. Startaplar, spin-off kabi modellarni amaliyotga jadal tatbiq etish lozim.

Oldimda vazifalar ko'p. Akademiyaning mavqeini ko'tarish, rolini ko'rsata bilishimiz va faollashtirishimiz zarur. Akademiya ilm-fanda yangilik yaratishi, ishlab chiqarish esa o'z yo'lida ketishi kerak emas. Akademiya islohot jarayonlarining oldi qatorida bo'lishi eng katta vazifalardan biri. Fanlar akademiyasi huzuridagi institutlarda magistratura ochish masalasi dolzarb. Ular qayta taqdirini ilm-fan bilan bog'lab, kashfiyot qilaman, yangilik yarataman, degan yoshlar tahsil olishi lozim. Hozir magistratura faqat oliy ta'lim muassasalarida, talaba bitirgandan keyin fan bilan shug'ullanadimi yoki yo'qmi, bu hech kimni qiziqitmaydi. Fanlar akademiyasi huzuridagi institutlarda magistratura bo'lsa, u o'ziga kadr tayyorlaydi.

### Yoshlarga e'tibor

Ilm avlodlar halqasida rivojlanadi, mamlakat ravnaqiga xizmat qiladi. Fan o'z-o'zidan rivojlanmaydi, uning taraqqiyot etishida yoshlarning o'rni alohida. Ayniqsa, matematika — yoshlar fani.

Fanni rivojlantirish uchun esa yoshlar kerak. Shuning uchun olimlarning talabalar bilan birga ishlashi fanning ta'limga yaqinlashuviga xizmat qilmoqda. Shu bois, olimlarimiz joylarda talabalar bilan birga ishlab, ularni ilmiy ishlarga jalb etmoqda. Qolaversa, universitetlarda ilmiy izlanish oliy borayotgan yosh olimlar ilmiy ishini davom ettirishi uchun sharoit yaratildi. Yoshlarning fanga qiziqishini oshirish maqsadida akademiklar, professor-o'qituvchilar ishtirokida "Uch avlod uchrashuvi", "Ustoz-shogird", "Mahorat darslari" kabi tadbirlar ham faoliyatimizda alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Demak, oliy ma'lumotli yoshlar qancha ko'p bo'lsa, yetuk kadrlar ham shuncha shakllanadi. Shuning uchun nafaqat oliy ta'lim muassasalari, balki maktablar bilan ishlab, hududlardagi bo'linalarimiz orqali yosh iqtidorli kadrlarni tarbiyalash masalasini kun tartibiga qo'yganmiz. Akademiylarimiz Prezident maktablari, ixtisoslashgan maktablarga borib, o'quvchilarga mashg'ulot o'tamoqda. Bu fan rivojiga xizmat qilishi shubhasiz.



**Yunus BO'RONOV,**  
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

**Boshlanishi 1-betda**

Tadbirkorlik o'zbekning qonida bor. Qozoqning donishmand shoiri Abay ham bundan yuz yillar oldin millatimizni bejiz o'mak qilib ko'rsatmagan: "O'zbeklar ekman ekin, ular olmagan hosil, savdogarlarining bormagan joyi yo'q. Xullas, ularning qo'ldan kelmagani ish yo'q... Ziyaraklik, mohirlik, epcchilik, uddaburonlik ham shularda, sipolik, odob ham shularda".

Bir asr oldin aytilgan gaplar bugun rosmana realikka aylangan. Quyidagi muhohazalarimiz shu haqda.

**Qishloqda ham millioner bo'lish mumkin**

Yaxshi eslayman: bundan 15-20 yillar avval qishlog'imiz ahlining asosiy daromadi chorvachilik va dehqonchilikdan edi. Yog'ingarchilik serob, suv mo'l bo'lsa, dehqonchilik ham, chorvachilik ham baroridan kelardi. Qisqasi, osmonga qaragan el edik. Aksar oilalarning tushligiyu kechligi zog'ora non edi. Davlatning o'sha paytdagi ijtimoiy nafaqasiga kun ko'radiganlar ham ko'p. O'zibo'larchilik, tanballik, yalqovlik, bekorchilik avjiga chiqqandi. Hamqishloqlarim yildan yilga og'irlashib borayotgan hayotiga negadir befarq edi. Ularning xatti-harakatini kuzatib, hayotini farovonlik sari o'zgartirishga urinishini hech sezmasdim.

Bugun vaziyat tubdan o'zgargan. Katta yo'l bo'yidagi qishlog'imiz qiyofasini solishtirib bo'lmaydi. Magistrning ikki chetida yuzlab kafe, restoran, to'yxonalar, maishiy xizmat ko'rsatish shoxobchalari qad ko'targan. Bugun Chim qishlog'ida Qashqadaryoning eng mazali taomlari tayyorlanadi. Shu bois, yo'li vohaga tushgan odam borki, qishlog'imizda bir to'xtab o'tadi.

Har ikki xonadonning birida issiqxonalar bor. Ularning birortasi ham gazga ulanmagan. Chunki bizning manzilga oqma gaz yetib bormagan. Lekin yilning istalgan faslida endi uzilgan pomidor, bodring, limon, ko'katlarim sarxilini sotib olish mumkin.

Yaqinda bir hamqishlog'imizning o'g'li Buyuk Britaniyada o'qib keldi. Chet elga ketgan ayrim yoshlar singari Yevropada qolib ketmadi.

**ISHBILARMONLIK XALQIMIZNING QONIDA BOR**

Ortiga — ona qishlog'iga qaytib, gulxayri o'simligini yetishtirib, eksport qilishni yo'lga qo'ydi. Qishloqda ham biznes yuritib, millioner bo'lish mumkinligini isbotladi. Shu bilan birga, yuzlab hamqishlog'ini ishli qildi. Xonadonlarga o'zi gul urug'i tarqatadi, mahsulot tayyor bo'lgandan so'ng kelishilgan narxda sotib oladi.

Ha, to'g'ri angladimgiz: bugun markazdan o'lsadagi qishloqda yetishtirilgan mahsulotlar katta-katta yuk mashinalariga ortilib, Yevropaga yuborilmoqda. Bundan 10-15 yil oldin bu haqda gapirsangiz, atrofda kimga qanday erishilgan. Hozir odamlar dunyoqarashi o'zgaroqda. Intilgan, biznes qilgan natijaga erishyapti. Ertangi kunga ishonchi ortmoqda.



**Rahmat ham, rag'bat ham bor**

tadbirkorlar soliqchilarga jazolovchi idora vakili sifatida qaragani rost. Buning ham o'ziga yarasha sabablari bo'lgan. Soliq ma'murchiligida ko'plab noaniqliklar tadbirkorlik ravnaqiga to'sqinlik qilardi. Ayniqsa, soliq stavkalari yuqoriligi hammasidan oshib tushardi. Shu bois, tadbirkorlar qonuniy faoliyat yuritishni istamasdi. Buni soliq xodimlari yaxshi bilgan. Shuning uchun soliq tekshiruv ham ko'p bo'lgan, — deydi Jizzax viloyati soliq boshqarmasi bosh inspektori Zilola Abdunabiyeva. — Adolatli soliq tizimi nafaqat tadbirkorlik, balki mamlakat iqtisodiy rivojlanishining asosidir. Shu tufayli mamlakatimizda tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, ishbilarmonlarni qiynayotgan muammolarni hal etish, soliq stavkalarini adolatli mezonga tushirishga e'tibor qaratildi. Eng avvalo, soliq stavkalari pasaytirildi. Soliq to'lash tartibi soddalashtirildi. Tizimda "Soliqchi — tadbirkorga ko'makchi" tamoyili joriy etilgani sohamizda tub buriilish yasadi. Hozir soliqchilar tadbirkorlarning haqiqiy do'sti, ko'makchisiga aylandi, desam mubolag'a bo'lmaydi. Bugun soliq xodimlari tadbirkorlarni qiynayotgan muammolarni tahlil qilmoqda. Ularga buxgalteriya hisobini yuritish, soliq hisobotini o'z vaqtida elektron topshirish, soliqlar to'lash va soha qonunchiligidagi o'zgarishlar mazmun-mohiyatini tushuntirib, amaliy yordam ko'rsatmoqda.

Joylarda "Tadbirkorga ko'mak" markazlari ochildi. Ularda soliq to'lovchilarga bepul xizmat ko'rsatilmoqda. Oldin tadbirkorlar hisobotini bir kun kechikib topshirsa ham jarima to'lashga majbur edi. Bankdagi hisob raqami soliq idoralari tomonidan "muzlatib" qo'yilgan. Bugun hisobot topshirish yoki soliqlarni to'lash kuni yaqinlashsa, soliq idoralari xodimlari tadbirkorlik subyektlariga qo'ng'iroq qilib, hisobot topshirish yoki soliqlarni to'lash zarurligini eslatmoqda. Bu borada ularga yordam kerak bo'lsa, ko'makka tayyorligini tushuntirmoqda. Shunday o'zgarishlar tadbirkorlarning islohotlarga ishonchini mustahkamlab, to'siqsizlaris faoliyat yuritishi, soliq tushumlari ko'payishiga xizmat qilmoqda. Natijada ishbilarmonlar daromadini yashirmayapti. Shu tariqa soliqlarni o'z vaqtida to'layotgan insofli soliq to'lovchilar safi ham kengaymoqda.

qo'yardi. Qolaversa, aholi manfaati uchun biror tashabbus bilan chiqqanlar "qora ro'yxat"ga kirib, loyihasi hayotga tatbiq etilmay qolib ketardi. Ishbilarmonlarning o'zi ham, foydali takliflari ham inobatga olinmagan, qo'llab-quvvatlanmagan. Hozirgi avlod tadbirkorlariga shularni aytib bersak, tushdek yoki ertakdek tuyuladi. Bugun davr, dunyoqarash boshqacha. Hozir biz, tadbirkorlarga Prezidentimiz ishonaypti. Tashabbus va yangi loyihalarni amalga oshirish uchun barcha imkoniyatlarni yaratib, faoliyatimizga doir qator imtiyozlar beryapti.

Avvallari tadbirkorlik qilish og'ir bo'lgan. O'lis hududlarda esa buning deyarli imkoni yo'q edi. Ayni vaqtda Uchquduq tumanida mingdan ziyod xususiy tadbirkorlik va kichik biznes vakili faoliyat yuritmoqda. Negaki har qanday davlatning iqtisodiy rivojlanishida aholining ish bilan bandligi juda muhim. Xalq ishli, daromad manbaiga ega bo'lsa, albatta, farovon turmush kechiradi. Bu borada kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari yetakchi kuchga aylanmoqda. Berilayotgan imtiyoz va imkoniyatlardan unumli foydalanib, faoliyatini tobora rivojlantirayotgan tadbirkorlar safi yildan yilga kengaymoqda.

Hozir "Uchquduq issiq non" xususiy korxonasi rahbari Ushbu korxonani tashkil etganimgizga 30 yildan oshdi. Yangi davr imkoniyatlari bilan faoliyatimizni yildan yilga rivojlantiryapmiz. Misol uchun, Rossiyadan non va non mahsulotlari ishlab chiqaradigan mini texnologiya olib kelib, ishga tushirdik. Oldin xorijdan zamonaviy texnologiya olib



**USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O'QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!**



mos ravishda boshqaruv idoralari xodimlarining ham tadbirkorga munosabati ijobiy emasdi. Misol uchun, bozorga biror mahsulot olib chiqsangiz, hujjatida kamchiligi borligi bahonasida "chayqovchi" degan tang'a bilan katta jarimaga yoki jinoyi javobgarlikka tortilar edingiz. Ayrim hollarda hujjatlar joyida bo'lsa ham bozor mutasaddilari yoki soliq xodimlari tadbirkorni xizmatkordek ko'rar, ehtiyoji va xarajatlarini ham uning zimmasiga yuklab

kelish davlat uchun ham, yirik korxonalar uchun ham muammo edi. Ayniqsa, valyuta bo'yicha yechib bo'lmias masalalar bor edi. Prezidentimiz valyuta konvertatsiyasini hal qilib berdi. Biror to'siq yoki muammo qolmadi. Davlatimiz rahbari har yili tadbirkorlar bilan muloqot qilib, muammolarni ijobiy yechib beryapti.

Mehnat o'z e'tirofini topsa, yanada qadrlil bo'ladi. Bugun tadbirkorlar samarali faoliyat uchun rahmat ham, rag'bat ham olmoqda.

**Tajriba yillar mobaynida to'planadi**

So'nggi sakkiz yillikning tadjriyi taraqqiyotiga nazar salsak, birgina kambag'allikka qarshi kurash yo'nalishida katta tajriba to'planganini ko'ramiz. Bu yo'lda ko'plab xato va kamchiliklarga yo'l qo'yildi. Deylik, dastlab aholiga imtiyozli kredit asosida tarqatilgan chorva va parrandaning ko'pi nobud bo'ldi yoki olgan odam uni bozorga chiqarib pullab yuborgan holatlar ham uchradi. Buni yurtidoshlarimizda tadbirkorlik ko'nikmasi shakllanmagani bilan izohlash mumkin.

Biroq bugun "Har bir oila — tadbirkor" dasturi doirasida imtiyozli kredit olib, kambag'allikdan ish beruvchiga aylangan oylar kun sayin ko'paymoqda. Bu esa boshqalarga har jihatdan namuna bo'lib, odamlarda "Mana, qilsa bo'lar ekan-ku!" degan ishonch uyg'otmoqda. Misol uchun, sayxunobodlik Inomjon Niyozov 20 sotix tomorqasida bog'dorchilik, uzumchilik bilan shug'ullana boshlaganiga hali ko'p bo'lgani yo'q. Bundan tashqari, u qovoqning eksportbop navini ham ekyapti.

Ilgari tomorqamizni to'ldirib beda ekardik. Hozir 20 sotixning 4 sotixini bog' qildik. Bundan tashqari, 3 sotixda uzumzor barpo etdik, — deydi mirishkor. — Ayolim bilan yonimizdagi paxta tozalash korxonasida mavsumiy ishlaymiz. Ayni bahorda ish boshlangandan to' kech kuzgacha bo'shmiz. Shu vaqtda dehqonchilik bilan shug'ullanaymiz. Yaqin-yaqin qanday dehqonchilik qilsak, xaridor topilmagan. Hozir esa shu urug'ni ekishni tavsiya qilganlar o'zi mahsulotimizni sotib olmoqchi. Shundan xursandmiz.

Eng yuqori boshqaruvdan quyil tuzilmalarga — tegishli barcha idora xodimlari bir paytdardagidek buyruq beruvchi emas, amalda xalq xizmatchisi ekanini anglab yetayotir. Bu demokratik, rivojlangan davlatlardagi zamonaviy boshqaruv tendensiyalaridan biridir.

2024-yilda kambag'allikka qarshi kurash sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarildi. Jarayonda aholi turmush darajasi nisbatan past bo'lgan Sayxunobod, Uychi, Zarbdor va G'ijduvon tumanlari tanlab olinib, kuchli ijtimoiy-iqtisodiy inqirozga tushib qolgan xonadonlar bilan to'g'ridan to'g'ri ishlash tizimi yo'lga qo'yildi. Bu esa qisqa muddatda samara bera boshladi. Hozir mazkur tumanlar tajribasi butun mamlakat miqyosida ommalashtirilmoqda.

Joriy yil yakunigacha "Sayxunobod tajribasi", ya'ni iqtisodiy kompleks tashkilotlarining mahallaga tushib, xonadonbay ishlash tizimi asosida har bir mahalladagi xonadonlar uchun moliyaviy paket qilib berilmoqda. Bu orqali 495 ming kishining bandligini ta'minlash ko'zda tutilmoqda.

"Uychi tajribasi", ya'ni tadbirkorlar va biznes bilan shug'ullanish istagidagi aholi bilan manzilli ishlash tizimi asosida tuman hokimlari tadbirkorlar bilan, banklar esa mijozlari bilan mutazamm uchrashib, ularga biznesini kengaytirishga ko'maklashmoqda. Bu jarayonda tuman hokimi infratuzilma masalasi, bank mas'uli esa moliyaviy ko'mak masalasi bilan shug'ullanmoqda. Tadbirkorlar bilan manzilli ishlash orqali yil yakuniga qadar 670 ming kishining bandligini ta'minlash maqsad qilingan.

**Eng katta boyligimiz**

Internetda "O'zbekiston xalqaro reytinglarda" deb qidiruv tugmasini bossangiz, reytinglarda mamlakatimiz poziyasi yaxshilanayotganiga guvoh bo'laisiz. Aslida, buni yangi O'zbekiston davlatchiligi tarixida "Inson qadri uchun" tamoyili asosidagi islohotlarga xalqaro tashkilotlarning haqqoniy va xolis e'tirofi sifatida qabul qilish mumkin.

Davlatning boyligi yer osti yoki yer usti boyliklari bilan emas, hamjihat, uddaburon va bir maqsadni ko'zlagan tadbirkor xalqi bilan o'lchanadi. Zero, davlatimiz rahbari ta'kidlagandek, "Bizning eng katta boyligimiz — ko'p millatli buyuk xalqimizdir".

**Bugunning gapi**

**HUQUQIY BILIM — YO'LCHIROQ**



"Hayotning har lahzasi go'zal, umrning har dami g'animat". Har gal zamonamizning o'tyurak tadbirkor yoshlari bilan suhbatlashganimda sevimli shoirimiz Anvar Obidjonning shu misralari yodimga tushadi. Umrning har damini g'animat bilib, hayotining har lahzasini go'zal yashab o'tishga urinayotgan yurtidoshlarimizga havas bilan qarayman. Ularga yaratib berilayotgan shart-sharoitdan quvonaman. Chunki bunday imkoniyatlar aholi daromadini oshirishga xizmat qilyapti. Ayniqsa, tomorqada mahsulot yetishtirish tajribasi qo'llab-quvvatlanayotgani ishsiz yigit-qizlarga o'zgacha shijoat bag'ishlamogda.



mahalla yoshlar yetakchisi va faollarning undovi bilan auksionidan unumdor yer olganida dastlab dehqonchilikni uddalay olishiga ko'zi yetmagan. — Tadbirkor huquqiy bilimni bo'lsa, muammolari o'z-o'zidan yengillashib boraverar ekan, — deydi suhbatdoshim. — Har gal yangi ish boshlamogchi bo'lganimga maktabda dars bergan o'qituvchim "Huquqiy bilimim — yo'lchiroq, Dadil qadam tashlashing uchun, albatta, Konstitutsiyamizdagi huquq va majburiyatlaringdan xabaridor bo'lishing kerak", degan edi. Ulg'ayganimga sari bu so'zlar oltinga

teng ekanini anglab boryapman.

Taraqqiyotning hozirgi bosqichida mamlakatimiz yoshlarining siyosiy-huquqiy madaniyati va ijtimoiy ong darajasi o'sib borayotir. — Toshkentdan pomidorning eng sara lodjyan urug'ini olib kelib issiqxonaga ekdim, — deydi yosh tadbirkor Akmal Xolmurodov. — Butun oilamiz bilan astoydil mehnat qildik. Qo'shni qishloqdan ishchilar ham kelib ko'maklashdi. Loladai qizargan pomidorlar ko'zimga shunday chiroyli ko'rindi... Baribir o'z mehnatingiz bilan yetishtirgan hosil boshqacha bo'larkan.

Yosh tadbirkor 1 gektar yerdan 80 million so'm sof foyda oldi. Uning o'riga ekilgan sabzidan 15 million so'm daromad olishni ko'zlamogda. Kelgusi yili kirimini yanada ko'paytirmogchi.

Davlatimiz rahbari shu yil 28-noyabrda meva-sabzavat yetishtirish, qayta ishlash va eksportini ko'paytirish chora-tadbirlari yuzasidan videoselektor yig'ilishi o'tkazgan edi. Akmal Xolmurodov televidor ovozini baland ko'tarib, bu muhim yig'ilishi oila a'zolari bilan birga kuzatdi. Unda Prezidentimiz 650 ming gektar maydondagi shaxsiy tomorqalar, ko'chalar bo'yi, dalalar cheti va kanallar atrofidan daraxt va oziq-ovqat ekinlari ekish uchun foydalanish imkonligini ta'kidladi. Shuningdek, dala chetini samarali ishlatgan fermerlarga tadbirkorlar reytingida qo'shimcha ball hisoblanishi, ichki fitosanitar sertifikatini bir yil davomida bepul berilishi ham aytib o'rtildi. Fermerlarning yer solig'ini ikki yilga bo'lib to'lashiga ruxsat etilgani esa yosh tadbirkorni juda quvontirdi.

Muxtasar TOJIMAMATOVA, "Yangi O'zbekiston" muxbiri

Davlatimiz rahbari 18-noyabr kuni Oliy Majlis Qonunchilik palatasining birinchi majlisida "Aholimiz soni ko'payib borayotgan hozirgi sharoitda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash eng dolzarb vazifa bo'lib qoladi", dedi. Yurtimizda aholi soni har yili qariyb 1 millionga ko'paymoqda. Ammo tabiiy resurslar, xususan, yer va suv manbalari cheklangan. Bunday vaziyatda ichki bozor barqarorligini omilkorlik va hosildorlik orqali ta'minlash muhim.

Prezidentimiz tashabbusi bilan 800 ming kishiga dehqonchilik qilish uchun 260 ming gektar yer bo'lib berilgan edi. Shuningdek, "Sayxunobod tajribasi" asosida tomorqalarda mahsulot yetishtirish qo'llab-quvvatlanmoqda. Bu odamlarni, ayniqsa, yoshlarni ish o'rni va daromad bilan ta'minlashda to'g'ri yo'l bo'lganini hayotning o'zi ko'rsatdi. Qashqadaryo viloyati G'uzor tumani Dashtobod mahallasida yashovchi Akmal Xolmurodov yaqindagim ishsizlar safida edi. U

DUNYONING ENG YIRIK

Xalqaro tashkilotga a'zolik iqtisodiy jihatdan o'sib borayotgan O'zbekiston uchun chuqur o'ylangan va uzoq muddatli manfaatlarni ko'zlovchi qaror bo'lib, milliy iqtisodiyotni liberallashtirish va globallashuv jarayonining muhim qismi hisoblanadi.

Jahon tajribasida kamdan kam kuzatiladi. Boisi, odatda ishchi guruh uchrashtirish bir yoki ikki yilda bir marta o'tkaziladi. Demak, O'zbekiston tomoni shu yilda 8- va 9-uchrashtirish o'tkazishga erishgani tashkilotga a'zolikka bo'lgan qadamlarning yanada tezlashganini anglatadi.

Ikkinchi davlatimiz rahbarining shu yil 3-iyundagi farmoni bilan yuritimizdagi monopoll tashkilotlarni yo'qotishga qaratilgan katta qadamlar bo'ldi. Qator monopollistlarning bir necha o'n yillar amal qilgan va avvalgi davrdan qolgan, keyinchalik yangi davrda kuchaygan qator eksklyuziv vakolat va huquqlari bosqichma-bosqich bekor bo'lyapti, ya'ni alohida huquqlar ularidan olib qo'yilmoqda. Chunki JSTga a'zo bo'lishning asosiy shartlaridan biri iqtisodiyotda barchaga teng sharoit yaratish hisoblanadi. "Yoki hammaga bir xil preferensiallar ber, yoki hech qimda bema, hamma halol o'ynasin", degan atqadag amal qilinadi.

Yil davomida uchinchi ko'zga ko'ringan jihat bu, albatta, davlatlar bilan muzokaralarni yakunlash masalasi. O'zbekiston 33 ta a'zo davlat bilan ikki tomonlama muzokaralar o'tkazayotgan edi, hozir shularning yarmidan ko'pi bilan muzokaralarni yakunladi. Bu juda katta natija. Shu yilning o'zida eng asosiy davlatlar bo'lgan AQSH va Xitoy bilan muzokaralarni tugatdik, qolgan davlatlar ham kelishuvga erishyapti. Qoidaga ko'ra, JSTga a'zolik uchun ikki xildagi — ikki va ko'p tomonlama muzokaralar o'tkaziladi. Ayni paytda davom etayotgan ikki tomonlama kelishuvlar tugagach, ko'p tomonlama muzokaralarga o'tiladi. U nisbatan oson kechadigan jarayon. Chunki unga qadar asosiy savdo sheriklar bilan shartnomalar imzolangan bo'ldi. Tashkilotga a'zo davlatlar vazirlarining 2026-yilda bo'lib o'tadigan uchrashuvi dekabrdan mart oyiga ko'chirilgan vaqtini yanada qisqartirdi. Shu jihatdan O'zbekistonning JSTga a'zolik yo'lida go'ylidagi so'nggi oylardagi faol harakatlarini samarali deb baholash mumkin. 2026-yilda Jahon savdo tashkiloti a'zosa aylanishimizga ishonchimiz baland.

Jahon savdo tashkiloti — juda katta bozor, 166 davlat bilan o'zaro savdo aloqalari xususiy sektor uchun haqiqiy raqobat maydoni hisoblanadi. Tashkilotga a'zolik har qanday davlat iqtisodiyotida ozmi-ko'pmi o'zini ta'minlaydi. Bu borada yetarlicha tahlillar, hisob-kitoblar qilingan. Jahon banki vakillari O'zbekistonning JSTga a'zo bo'lganidan keyin kutilayotgan muhim iqtisodiy imkoniyatlariga borasida qator fikrlar bildirdi. Xususan, ularning hisob-kitoblariga ko'ra, tashkilotga a'zo bo'lganimizdan so'ng 5-7 yil ichida mamlakatimiz yalpi ishchi mahsuloti qo'shimcha 17 foiz o'sishi mumkin. Xizmatlar sohasi bu o'sishning asosiy omillaridan biri sifatida qayd etilgan.

Iqtisodchilarning ta'kidlashicha, O'zbekistonning JSTga a'zo bo'lishi, avvalo, jahonning nihoyatda katta bozoriga ochiq yo'l, degani. Shu vaqtgacha mahsulotlarimiz, asosan, Markaziy Osiyo davlatlariga chiqayotgan bo'lsa, endi dunyo davlatlariga kirib boradi. Ammo JSTga a'zo bo'lishning o'z talablari ham bor va ular eng muhimi savdodagi erkinlikdir. Qolaversa, dunyo davlatlariga ochilish, iqtisodiyotda davlat ulushini sezilarli kamaytirish, monopoliyaga chek qo'yish va hokazo. Mazkur talablar mamlakat iqtisodiyotining bozor iqtisodiyoti tamoyillariga o'tishini taqozo etadi. Bu degani, davlatning iqtisodiyotga aralashuvi cheklanishi kerak. Maqsad esa xalqaro standartlarga moslashishga qaratilgan. Shularga tayyor bo'lgan davlatlarga tashkilot talablarini bajara oladi.

Aslida, bu tabdtkorlikni yanada rivojlantirish uchun ham katta imkoniyat. Monopol savdosida qolayotgan korxonalar egalaringin yelkasiga o'fob tegadi. Qanday biznes bo'lishidan qat'i nazar, erkin va ochiq, hamma uchun teng bozor maydonida raqobatga kirishadi. Mana shu jihat ko'pchilikni qo'rqitayotgan, o'ylantirib qo'yyotgan bo'lsa ajabmas.

Maqolani qiziq bir ma'lumot bilan yakunlaymoqchiman. Ko'plab davlatlar, hatto Xitoy ham Jahon savdo tashkilotiga kirishda ikkilanishlar, qo'rquv bo'lgan. Ammo bugungi kunga kelib, u dunyoning eng rivojlangan davlatlari orasida yetakchilik qatorida. Yer yuzida Xitoy brendlari kirib bormagan davlat bo'lgan bo'lsa kerak. Har holda jahonning 97 foiz mamlakati JST a'zosi ekanini haqida yuqorida ta'kidlagan edik.

www.yuz.uz yuz.uznews



Iroda TOSHMATOVA, "Yangi O'zbekiston" muxbiri

Boshlanishi 1-betda

Iqtisodchilar, tahlilchilardan tortib, yurtidoshlarimiz ham xalqaro tashkilotga a'zo bo'lishga qaratilgan jarayonlarni kuzatib boryapti. Oldinda qolgan bir yarim yil ichida JSTning barcha talablarini bajarib, uning to'laqonli a'zosiga aylanishimizga ishonmaganlar ham bor. Ammo joriy yil, ayniqsa, oxirgi oylardagi faol harakatlar O'zbekistonni JSTga a'zo bo'lishga tobora yaqinlashtirayotgani e'tirof etilmoqda. Natijaga bo'lgan ishonch yanada mustahkamlangan.

Katta bozorga yo'l

Jahon savdo tashkilotining o'zini va nufuzi dunyo iqtisodiyotida juda katta. Xalqaro tuzilma 1995-yil 1-yanvarda asos solingan bo'lsa-da, uning tarixi 1947-yilga borib taqaladi. O'shanda 20 dan ortiq davlat birgalikda tashkilot faoliyatini yo'lga qo'ygan. 1995-yilga kelib, faoliyati yangilanib, Jahon savdo tashkiloti nomi bilan atala boshladi. Ayni paytda tuzilma 166 davlatni birlashtiradi va bu sayyoramizdagi mavjud davlatlarning 97 foizi, degani. Qizig'i, ularning orasida hanuzgacha O'zbekiston nomi yo'q.

Bu deyarli 30 yillik tarix. O'zbekiston 1994-yilda, ya'ni tashkilot tashkil bo'lganda, deb aytilgandayoq unga a'zolikka ariza bergan. Oradan 30 yil o'tgan bo'lsa-da, hamon a'zolar qatorida emasimiz. Mamlakatimiz tashkilotga kirishga eng ko'p vaqt sarflagan, rekord qo'ygan davlatlar qatorida. Buning ko'plab sabablari bor. Avvalo, 2005-yilda yuritimizning a'zolikka bo'lgan harakatlari butunlay to'xtatilib, muzlatib qo'yilgan. Shavkat Mirziyoyev Prezidentlikka kelganidan keyin bu harakatlar 2018-yildan qayta boshlandi. 2020-yillardan ishlar yanada faollashib, mamlakatimiz iqtisodiy siyosatida xalqaro standartlarga moslashish jadallashdi. Chunki JSTga a'zo bo'lish bir necha ariza va kichik islohotlar bilan bitadigan ish emas. Tashkilotning har bir davlati qo'yadigan talablar, xalqaro bozorga moslashish shartlari, barcha uchun manfaatli huquqiy asoslar zarur.

Ko'pchilik O'zbekistonning bunga tayyor ekanini kutmagan edi. Ammo yurtimiz Jahon savdo tashkilotining 2026-yilda Kamerunda bo'lib o'tadigan 14-vazirlar konferensiyasiga tashkilotga a'zo bo'lishni reja qilgan. Bu yo'lda davlatimiz rahbarining qat'iy irodasi bilan haqiqiy ma'nodagi amaliy islohotlar kechmoqda. Prezidentimizning joriy yil 3-iyundagi "Bozor islohotlarini yanada jadallashtirish va O'zbekiston Respublikasi milliy qonunchiligini Jahon savdo tashkiloti bitimlariga muvofiqlashtirish bo'yicha navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida" gi farmoni esa shu paytgacha JSTga a'zo bo'lish yo'lidagi

qadamlarning eng kattasi va salmoqli bo'ldi. Mazkur hujjat o'zbek xalqi va iste'molchilar uchun juda ko'p tenglik berishni nazarda tutadi. Shu vaqtgacha yurtimiz hayotida JSTga a'zolik yo'lida bu qadar katta o'zgarish bo'lmagan iqtisodchilar tomonidan ham e'tirof etiladi. — Jahon savdo tashkiloti davlatlarga ko'p tomonlama savdo tuzimini muvofiqlashtiruvchi nufuzli xalqaro tuzilma, — deydi iqtisodiyot fanlari doktori Elmurod Hoshimov. — Unga a'zolik O'zbekistonning iqtisodiy salohiyatini oshirish va global iqtisodiyotdagi ishtiroki uchun katta imkoniyatlar yaratadi. Jumladan, milliy mahsulotlarni xalqaro bozorlarga kiritish, savdo hajmini ko'paytirish, chet el sarmoyalarini jalb qilish osonlashadi. Mamlakatda iqtisodiy islohotlarni yanada jadallashtirishga rag'bat paydo bo'ladi. Xalqaro tashkilotga a'zolik iqtisodiy jihatdan o'sib borayotgan O'zbekiston uchun chuqur o'ylangan va uzoq muddatli manfaatlarni ko'zlovchi qaror bo'lib, milliy iqtisodiyotni liberallashtirish va globallashuv jarayonining muhim qismi hisoblanadi.

JST talablariga uyg'unlashish jarayonidagi iqtisodiy islohotlar nafaqat eksport hajmini oshirish, balki aholi turmush darajasini yaxshilashga ham xizmat qiladi. Bu islohotlarning muhim qismi esa qonuniy asoslarni yaratishdan boshlanadi. Shu bois, JST talablariga javob beradigan milliy qonunchilik bazasini yangilash,



SAVDO MAYDONI

Poyoniga yetayotgan yil O'zbekiston uchun JSTga a'zolik yo'lida muhim qadam bo'ldi



JST talablariga muvofiq, ichki bozorni modernizatsiya qilish jarayonida 340 ta yangi milliy standart qabul qilindi. Sanitariya va fitosanitariya choralarini joriy qilish orqali qishloq xo'jaligi mahsulotlari sifati yaxshilandi. Bularning hisobiga joriy yil O'zbekiston JSTga a'zo bo'lish bo'yicha sezilarli natijalarga erishdi.

xalqaro savdo qoidalariga muvofiqlashtirish, bojxona va savdo tartibotlarini xalqaro standartlarga moslashtirish ishlari jadal. Jarayonda 24 ta yangi normativ-huquqiy hujjat qabul qilinib, 40 ta mavjud hujjat qayta ko'rib chiqildi. JSTning "milliy rejim" tamoyiliga muvofiq, mahalliy va xorijiy tabdtkorlar uchun teng imkoniyatlar yaratilmoqda.

Tabdtkorlik subyektlari va intellektual mulk huquqlari uchun davlat ro'yaxidan o'tkazishda mahalliy va xorijiy shaxslar uchun bir xil davlat bojlari joriy qilindi. Bundan tashqari, Adliya vazirligida milliy qonunchilikni JST bitimlariga uyg'unlashtirish bo'yicha maxsus boshqarma tashkil etilganidan buyun 700 dan ortiq qonunchilik hujjati loyihalari JST qoidalariga muvofiqdigi jihatidan ekspertizadan o'tkazildi.

Qo'yilgan talablarni birdaniga bajarish oson emas, jarayon bosqichma-bosqich davom etadi.

Shunga qaramay, 2024-yil yuritimizda JSTga qo'shilish yo'lidagi ishlarning eng samarali va faollashgan davri bo'ldi, deb ayta olamiz. Birgina bojxona va savdo tartibotlarini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirishda sezilarli qadamlar qo'yilgani, eksportyorlar uchun soliq imtiyozlari va moliyaviy ko'mak dasturlari kengaytirilgani haqida uzoq gapirish mumkin.

Jumladan, yangi bozorlarga kirish bo'yicha qator davlatlar bilan savdo kelishuvlari imzolalib, eksport jarayonlarini avtomatlashtirish orqali xalqaro bozorlarga chiqish vaqti qisqartirildi. JST talablariga muvofiq, ichki bozorni modernizatsiya qilish jarayonida 340 ta yangi milliy standart qabul qilindi. Sanitariya va fitosanitariya choralarini joriy qilish orqali qishloq xo'jaligi mahsulotlari sifati yaxshilandi. Bularning hisobiga joriy

yil O'zbekiston JSTga a'zo bo'lish bo'yicha sezilarli natijalarga erishdi.

Halol va adolati o'yin

Natijalarni xalqaro ekspertlar, tashkilotga a'zo davlatlar ham e'tirof etyapti. Buni o'zaro uchrashtiruvchi, muzokaralar davomida kuzatib boryapmiz. Gap shundaki, JSTga a'zo bo'lishda ishchi guruh yig'ilishlari juda muhim sanaladi. Bu kabi yig'ilishlarda xalqaro tashkilotning 166 a'zosi O'zbekiston vakillarini savolga tutadi. Masalan, Qozog'iston 20 ta, Rossiya 30 ta muzokaralar yig'ilishidan so'ng JST a'zolisiga qabul qilingan.

O'zbekistonning Tashkilotga a'zolik yo'lidagi so'nggi uch ishchi guruh yig'ilishlari ikki yil davomida, ya'ni 2022-yil iyun, 2023-yil mart hamda noyabr oyida bo'lgan bo'lsa, 2024-yilda o'tkazilgan ikkita yig'ilish ancha tez amalga oshganini ko'rish mumkin. Bu hukumat JSTga a'zo bo'lishni tezlashtirishga urinayotgan dalolat. Shunga qaramay, joriy yilning kuz oylariga qadar xalqimiz, hatto iqtisodchilar ham yuritimizning bu boradagi maqsadiga erishishi, qolgan oz fursatda ko'plab davlatlar bilan muzokaralarni yakunlashga ishonmayotgan edi. Ammo oxirgi ikki oyda jarayonlar birdaniga tezlashib, ko'pchilikni shoshirib qo'ydi. Mamlakatimiz tashkilotga a'zo bo'lish davlat bilan muzokaralarni muvaffaqiyatli yakunlashga erishdi. Ularning orasida JSTning eng yirik a'zolari — AQSH va Xitoy ham bor.

Avvaliga shu yilning 4-noyabr kuni O'zbekiston AQSH bilan Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lish bo'yicha muzokaralarni yakunlagani xabar qilindi. Rasmiy Vashington bilan tashkilotga a'zolikni qo'llab-quvvatlash bo'yicha ikki tomonlama muvofiqdagi 14 oy davom etgan. Nihoyat ishonch bildirilib, AQSH O'zbekistonga bu masalada yordam ko'rsatgan yigirma birinchi davlatga aylandi. Shu yilning

19-dekabrda esa AQSH O'zbekiston bilan JSTga a'zo bo'lish yo'lidagi ikki tomonlama bozorga kirish muzokaralari yakunlaganini rasman e'lon qildi.

Noyabr oyining so'ngi kunlarida Xitoy bilan ham ikki tomonlama muzokaralarni yakunlashga erishdik. "Yil yakuni O'zbekistonning Jahon savdo tashkilotiga a'zoli bo'yicha juda mazmunli bo'lmoqda — ikkita eng yirik global savdo egalari — AQSH va Xitoy bilan muzokaralar yakunlandi. 22 ta mamlakat bilan muzokaralar tugadi, ko'p qolmadi!" deya bu haqda ma'lum qildi O'zbekiston Prezidentining Jahon savdo tashkiloti masalalari bo'yicha maxsus vakili Azizbek O'runov.

Oradan hech qancha o'tmay, shu yil dekabr oyi boshida Filippin ham O'zbekistonni qo'llab-quvvatladi va oxirgi ikki oy ichida muzokaralar yakunlagan to'rtta davlatdan biriga aylandi. Bir necha kun o'tib, O'zbekiston Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lish bo'yicha yana ikki davlat — Pokiston va Tailand bilan ikki tomonlama muzokaralarni yakunladi.

2024-yil chindan O'zbekistonning Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lishi yo'lidagi eng samarali yillardan biri bo'ldi, — deydi iqtisodiyot fanlari doktori, professor Valijon To'raqulov. — Buni amaliy harakatlar ham, erishilayotgan natijalar ham ko'rsatib turibdi. Muzokaralar faolligidagi o'sish yaqqol ko'zga tashlanayapti. Masalan, 2018-yilda mamlakatimizning JSTga a'zo bo'lishiga qayta start berilgan bo'lsa, oradan ikki yil o'tibgina, ya'ni 2020-yildan ishchi guruh uchrashtiruvchi rasman boshlangandi. Chunki ishchi guruh uchrashtiruvchi Jahon savdo tashkilotining Jenevadagi ofisida o'tkaziladi va istalgan vaqtda tashkil qilinmaymaydi. Biror muhim asos bo'lganidag ishchi guruh a'zolari to'planadi. Ana endi joriy yilgi holatga e'tibor qarataylik — 2024-yilning o'zida O'zbekiston JST doirasidagi ikkita ishchi guruh uchrashtiruvchi o'tkazishga ulgurdi. Bunday holat



USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O'QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!

Qaror va ijro

Prezidentimizning "Surxondaryo viloyatining tog'li-rekreatsion hududlarida turizm infratuzilmasini yaxshilash hamda zamonaviy xizmat ko'rsatish va turizm obyektlarini barpo etish chora-tadbirlari to'g'risida" gi qaroriga binoan vohaning Boysun, Sariosiyo va Jarqo'rg'on tumanlarida zamonaviy turistik markazlar tashkil etiladi.



bog'lovchi asosiy tranzit yo'laklaridan birining chorrahasiga, xalqaro sayohlik va savdo markaziga aylantib borayotir.

SURXONDARYOGA SAYYOHLAR TASHRIFI KO'PAYMOQDA



foydasini 30 million dollarga yetkazish maqsad qilgan.

Buyuk ipak yo'li chorrahasida joylashgan Surxon vohasi Zarusoy, Sopollitepa kabi bir qancha qadimiy obidalari, Boysuntog' tizmasidagi ajib tilimli Xo'jamayxona, Omonxona nomli shifobahar buloqlari, Sangardakdagi fusunkor sharsharasi va boshqa ko'plab moddiy hamda nomoddiy boyliklari bilan hamisha sayyohlar diqqat markazida bo'lgan.

"Omonxona" ziyoratgohi keyingi yillarda sihatgoh sifatida ham qayta yuz ochyapti. Buning natijasida nafaqat mamlakatimiz, balki qo'shni davlatlardan ham keladiganlarni soni ortib

boryapti. Masalan, bu yilning o'zida 300 mingga yaqin sayyoh kelgan. Sangardak qishlog'ida esa 500 ming sayyoh dam olgan. Qaror doirasidagi ishlar bajarilishi mehmonlar sonining bir necha barobar ortishiga sabab bo'ladi, — deydi Surxondaryo viloyati hokimligi kotibiyati mudiri Akromjon Xalilov.

maydoni 615 gektar bo'lgan yer uchastkasida "Sangardak" turistik markazi, Jarqo'rg'on tumani Obihayot mahallasidagi "Oqtqepa" suv omborining qirg'oq bo'y hududidagi 110 gektar yer uchastkasida "Obihayot" turistik markazi, "Omonxona", "Sangardak" va "Obihayot" turistik markazlarini rivojlantirish va boshqarish uchun davlat muassasasi shaklida Surxondaryo viloyatida turizm infratuzilmasini rivojlantirish va boshqarish direksiyasi tashkil etiladi.

Markazlarni qurish uchun bu hududlar tanlangani bejiz emas. Sababi viloyatga keluvchi mahalliy va xorijlik sayyohlar eng ko'p tanlangan va borgan manzillar aynan shu hududlardir. — Qaror bilan "Omonxona", "Sangardak" va "Obihayot" turistik markazlarini rivojlantirish va boshqarish uchun davlat muassasasi shaklida viloyatda turizm infratuzilmasini rivojlantirish va boshqarish direksiyasi tashkil qilinmoqda, — deydi Surxondaryo viloyati hokimligi master rejarlar ishlab chiqish va amalga oshirish bo'yicha loyiha ofisi rahbari Matyoqub Boymurodov. — Direksiya ayni yo'nalishda ishlarni yo'lga qo'yish, tabdtkorlarni jalb etish, infratuzilma shakllantirish, bo'sh yer uchastkalarini ajratish, turizm markazlarini milliy va zamonaviy arxitektura asosida bunoyd etishda tuzim vazifasini o'taydi.

Surxondaryo viloyatida 600 dan ziyod madaniy meros va turizm obyekti bor. Shu bois, davlatimiz rahbari o'tgan yili vohaga tashrif

chog'ida hududda 2,5 ming o'ringa ega 53 tagina mehmonxona borligi va ularning ham yarmi Termiz shahrida joylashganini ta'kidlab, sayyohlar oqimini 3 barobar oshirish uchun tabdtkorlariga mehmonxona qurishi uchun subsidiya ajratish haqida tegishli vazifalarni belgilab bergan edi. Yil avvalidan buyun viloyatda yana 5 ta mehmonxona, 6 ta xostel va 25 ta o'ilaivi mehmon uy ishi boshlandi. Qaror esa bu ishlarni yangi bosqichga ko'tarishga xizmat qiladi.

Davlat subsidiyasi asosida markazlarning infratuzilmasini yaratish maqsadida 40 dan ortiq tabdtkor qo'llab-quvvatlanadi. 64 ta mehmonxona bunoyd qilinadi. Yana 8 ta turizm loyihasi amalga oshirildi. Natijada kelgusida 900 ming xorijlik, 2,5 million mahalliy sayyohning vohaga tashrif uchun sharoit yaratiladi, — deydi Surxondaryo viloyati hokimligi turizm, sport, madaniyat, madaniy meros va omniyati kommunikatsiyalar masalalari bo'yicha kotibiyati mudiri Akromjon Xalilov. — Qaror bilan tashkil qilinadigan markazlar Surxondaryoda turizm xizmati hajmini oshirish, sayyohlar uchun joyzabador manzil yaratish, qolaversa, iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlari ortishida muhim asos bo'ladi.

Sarfar TO'RAYEV, "Yangi O'zbekiston" muxbiri

SOG'LOM TURMUSH SAHIFASI

Salomatligimiz turmush tarzimizga bog'liq

Barno ODILOVA,
Sog'liqni saqlash vazirligi boshqarma boshlig'i o'rinbosari



Sog'lom turmush tarzi asosi hisoblangan to'g'ri ovqatlanish insonning salomatligi, uzoq umr ko'rishi, samarali mehnat qilishi uchun asosiy omildir.

To'g'ri ovqatlanish oilalarda tibbiy madaniyat darajasiga chiqishi zarur. Tartibli ovqatlanish insonning tibbiy madaniyati, o'z salomatligiga bo'lgan mas'uliyatini bildiradi.

Sog'lom va to'g'ri ovqatlanish katta yoshdagilar uchun juda muhim. Yoshlar uchun kamida 3 mahal ovqatlanish yetarli bo'lishi mumkin.

Qattiq qovurilgan yog'li go'shtni bug'da dimlab pishirilgan yoki qaynatilgan yog'siz go'sht mahsulotlari bilan almashirish zarur, har kuni meva va sabzavot, dukkaklilar, yorma iste'mol qilish odat tusiga kirishi kerak.

Asosiy ovqatlar orasida "tolma cho'y" bo'lishi, bu vaqtda, asosan, meva va sabzavot, ulardan tayyorlangan salatlar iste'mol qilish tavsiya etiladi.

Qo'qon davlat pedagogika institutining jismoniy tarbiya fakultetida 42 yil sport murabbiyi bo'lib ishladim. Hozir O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universitetining Farg'ona filialida yengil atletika bo'yicha murabbiyman.

Toshkent, Farg'ona, Samarqand va boshqa shaharlarimizda o'tkazilgan bellashuvlarda faol ishtirok etib kelyapman. 10-20 kilometr masofaga yuguraman. Ustozim Hamroqul Rafiyev 85 yoshda. U men bilan birga yugurish marafonlarida qatnashadi.

Yugurish inson salomatligida katta ahamiyatga ega. Semizlik, qandli diabet, qon tomirlaridagi tromblarning oldini oladi.

Sahifani "Yangi O'zbekiston" muxbiri Risolat MADIYEVA tayyorladi.

YURISH, YUGURISH VA TO'G'RI OVQATLANISH

insonni jismoniy va ruhiy sog'lom qiladi, umrini uzaytiradi



Inson salomatligi unda nafaqat kasallik yoki jismoniy nuqsonlar yo'qligi, balki ruhiy xotirjamligi, salomatligini yaxshilash va muhofaza qilishga qaratilgan chora-tadbirlar bilan ham o'lchanadi.

Statistika agentligi ma'lumotlariga ko'ra, 2023-yilda mamlakatimizda doimiy aholining o'rtacha umr ko'rish davomiyligi 74,7 yoshni tashkil etdi.

Davlatimiz rahbari joriy yil 21-may kuni Sog'liqni saqlash loyihalari markazi tomonidan amalga oshirilayotgan ishlar va yangi takliflar taqdimoti bilan tanishar ekan, jamiyatda sog'lom turmush tarzini keng yoyish orqali kasalliklarning oldini olish, odamlarda o'z salomatligiga mas'uliyat hissini kuchaytirish hamisha



USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O'QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!

muhimligini ta'kidladi. Darhaqiqat, sog'lom turmush tarzi salomatlikning asosiy omilidir. Biz yurtodsharimizning mavzuga oid fikr-mulohazalari bilan qiziqdik.




Velosport orqali sog'lig'i tiklanganlar ko'p

Karimjon HAKIMOV, pensioner

Velosiped minish shunchaki havas edi. Bora-bora sevimli mashg'ulotimizga aylandi. Esimda, bir gal bizda velomarafon uyushtirish tashabbusi uyg'ondi.

Kim guruhga a'zo bo'laman desa, shifokor ko'rigidan o'tib kel, deyman. Sog'lig'idan shikoyati bo'lmasa, hech qanaqa ro'yxatda turmasa, tibbiy ko'rikdan o'tib kelsangiz, jamoa a'zolisiga qabul qilamiz.

Velosport bilan shug'ullana boshlaganimda 97 kilo tosh bosardim. Hozir vaznim 77-78 kilo. Guruhimizda ko'pchilik menga o'xshab vazn tashladi.




kabi mavsumiy sabzavot va ko'katlar ekamiz. Ularga ham o'zim qarayman.

Oramizda ilgari nafasi siqadigan, yuragi bezovta bo'ladiganlar bor edi. Hozir ularning ahvoli ijobiy tomonga o'zgaragan.

Velomarafondan so'ng uyga kelsam, ko'nglim ravshan tortadi. O'tgan davrda marafon orqali Qoraqalpog'iston, Samarqand, Buxoro, Qirg'izistonning bir nechta shaharlariga bordik.

Eng qulay mashg'ulot

Shuhrat IRGASHEV, O'zbekiston valeologlar assotsiatsiyasi raisi, tibbiyot fanlari doktori, professor



Atrofga nazar salsak, 90 yoshga yetganda ham hayotiy faol, kuch-quvvatga to'la odamlarni uchratamiz. Uzoq umr ko'rishning siri nimada deb o'ylaymiz? Ularning hayot tarzini o'rganганиmizda uzoq va sog'lom hayot kechirishning siri tizimli jismoniy yuklamalar va faol hayot tarzi hamrohi ekaniga guvoh bo'lganmiz.

Nima uchun jismoniy mashqlar bajarish kerak? Eng muhim sabab — hayot sifatini oshirish. Badantariya stresslarni bartaraf etib, organizm holatini yaxshilaydi, hayot davomiyligini uzaytiradi.

Hamma narsada me'yor kerakligini unutmaylik. Barcha sport mashg'ulotlarini kichik masofalardan boshlash kerak.

Uzoq umr ko'rish va "sifatli qariyalik" ko'pincha irsiyatga bog'liq, biroq 50 foiz holatda buni insonning hayot tarzi belgilaydi.

"Yangi O'zbekiston" va "Правда Востока" gazetalarini tahririyati DM MUASSIS: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir: Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi. Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi — 236. Buyurtma — 4533.

Navbatchi muharrir: Yunus Bo'ronov Musahhih: Asliddin Abdurazaqov Dizayner: Xurshid Abdullayev